

373
14-32

MAXMUDOV BAXRAMJON
ABDUSALOMOVICH

JISMONIY TARBIYA
NAZARIYASI VA
METODIKASI



393, 796,
N - 32.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIVALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAXMUDOV BAXRAMJON ABDUSALOMOVICH

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

(5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'naliishi uchun)

DARSLIK

- 14079/22 -



Chirchiq-2023
«City of books»

UDK 373.796
KBK 74.202.75.1

M-32

B.A. Maxmudov / Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi / Darslik.

- Chirchiq: «City of book», 2023. – 252 bet.

A N N O T A T I V A

Mazkur darslik Davlat ta'lim standartlari va uning o'quv dasturiga binoan 5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan nazariy bilim, analiy ko'nikma va malakalar bayon qilingan. Olyi ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan olyi ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va jismoniy tarbiya fanidan analiy mashq' ulotiga qatnashuvchi talabalar foydalanishlari mungkin.

Muanif:

Maxmudov B.A. CHDPU Bolalar sporti kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.

Taqrizchilar:

Xurramov E.E. CHDPU Bolalar sporti kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.

Latiqov R.I. Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti.

Ta'lim va tarbiya masalasi barcha davrlarda eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi vazifalardan biri bo'lib kelgan[1]. Chunki, mamlikat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiغا hissa qo'shadigan yuqori malakali, etuk mutaxassis kadrlar tuyyorish bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq. Shuning uchun olyi ta'lim tizimining o'quv rejasida keltirilgan o'quv fanlaridan hisoblangan jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fanning maqsadi, mazmuni va o'qitish usullarini takomillashtirish zaratasi shu soha mutaxassislari va mutasaddilari zimmasiغا ulkan mas'uliyatni yokiaydi. Zero, olyi ta'lim tizimida qayd qilinganidek, Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bu fanni o'qitishdan ko'zlangan assosiy maqsad: talabalarga maktab jismoniy tarbiyasida o'quvchilarni sog'lon turmush tarzini shakllantirish, shuningdek, ulurda jismoniy tarbiya bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikma aega bo'lishi lozimligi bilan belgilanadi.

Mazkur darslik olyi ta'lim tizimining boshlangich ta'lim yo'nalishida tahlil oladigan talabalar uchun mo'jalfigan bo'lib, fanning o'quv rejasida hamda fan dasturi asosida yaratilgan.

KIRISH

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'tusida sog'lon turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy rehabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda munlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtiroy etishini ta'minlash borasida izchil choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim mazmuni modernizatsiyalash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning muhim vazifalari sirasiga kiradi.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklastadigan aniq dasturlari amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalg qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenерlar uchun qo'shinchcha shart-sharoitlar yaratish zaratati mavjud[2].

Ta'lim va tarbiya masalasi barcha davrlarda eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi vazifalardan biri bo'lib kelgan[1]. Chunki, mamlikat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiغا hissa qo'shadigan yuqori malakali, etuk mutaxassis kadrlar tuyyorish bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq.

Shuning uchun olyi ta'lim tizimining o'quv rejasida keltirilgan o'quv fanlaridan hisoblangan jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fanning maqsadi, mazmuni va o'qitish usullarini takomillashtirish zaratasi shu soha mutaxassislari va mutasaddilari zimmasiغا ulkan mas'uliyatni yokiaydi. Zero, olyi ta'lim tizimida qayd qilinganidek, Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bu fanni o'qitishdan ko'zlangan assosiy maqsad: talabalarga maktab jismoniy tarbiyasida o'quvchilarni sog'lon turmush tarzini shakllantirish, shuningdek, ulurda jismoniy tarbiya bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikma aega bo'lishi lozimligi bilan belgilanadi.

ISBN 978-9910-9966-5-8

© B.A. Maxmudov, 2023
©«City of book», 2023

I BOB HARAKATLI O'YINLARNI QISOQACHA TARIXI, TURKUMLARI

VA PEDAOGOGIK AHAMIYATI

1.1. Harakatli o'yinlarning rivojlanish tarixi

Harakatli o'yinlar o'z nomi bilan inson faoliyatini ta'milovchi mazmunga egadir. Buni eng qadimgi ajoddalarimiz ham ongi ravishda chuqur bilishgan va amal qilishgan.

Boshda takidlanganidek, kurash, ot o'yinlari, kamondan (oy) nayza (o'q) otish, nayza sanchish, kaltak, tosh va boshqa moslamalarni uloqitrib yovvoyi hayvonlarni ov qilishgan.

Ijtimoiy tuzumlar almashishi va rivojlanishi tufayli tur mush sharoit o'zgargan va rivojlangan. Mehnat qilish, ojada bojalarni tarbiyalash, ov qilish, dushmanlarga qarshi jang qilish va boshqa juda ko'p sabablarga ko'ra harakatli o'yinlar, turli jismoniy mashqlar maqsadli hamda keng qo'llangan.

Osiyo, Yevropa qit'alarda yashagan odamlar asosan ov bilan shug'ullanib, turli xil harakatli o'zinlarni kashf etishgan. Bunda hayvonlarning hatti-harakati, tabiatdagi turli o'zgarishlarga qiyos qilishgan.

Yovvoyi-yirtqich hayvonlardan saqlanish, ov qilish jarayonlarida chaqqonlik, kuchlitlik, chidamlilik, tezkorlik kabi jismoniy sifatlar sarf qilinishini tushungan qabila, urug' oqsaoqlari, yoshlarni maxsus tayyorlashga kirishtiganlar. Bunda jismongan baquvvat, chaqqon kishilarni tarbiyachi yo'lliga o'rnatib, ulardan bolalarni tarbiyalashda foydalananigan.

Quldorchilik tuzumi davrida mayda hunarmandchilik va keyinchalik ishlab chiqarish rivojlangan. Natijada metall buyumlardan qilich, nayza, pichoq, bolta, o'roq kabi jang va mehnat qurollarini yasashgan. Ulardan turli marosimlarda o'yin sifatida foydalanganlar.

Ilk bor davlat paydo bo'lgan Greklar, Rimliklar va ularning atrofidagi xalqlarning ijtimoiy tur mush sharoitida urushlar ko'p bo'lganligi sababli harbiy qurollarni yasash asosiy o'rinda turgan. Mohirona jang qilish uchun esa askarlarni

har tomonlama jismoniy jihaddan tayyorlashgan. Jang mashqlarining ba'zi qismalarni (element) o'yinga aylantirib, xalq orasida keng tarkalgan.

Kadingi Greklarning sparta tizimi, Italiyaning Rim tizimi va shunga o'xshash tarbiya maskanlarida eng murakkab mashklar, jang amallari o'rgatiilib, ularni onma o'rtaida tomosha sifatida namoyish etishgan.

Feodalizm jamiyati davrida boy feodallar va dehqonlarning yumushlari asosida turli xil yangi o'yinlar vujudga kelgan. Ular qilichlashish, nayza utoqitirish, kamondan o'q otish kabi turlar bilan bir qatorda mushlashish (boks), kurash, tosh ko'turish, suvda suzish kabi o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishgan.

O'rta asr va keyingi bir necha yuz yilliklar davrida yuqorida tilga olingan murakkab harakatli o'yinlar musobaqa shakliga o'tib, kuch va matonat sinash, jang qilish quroliga aylangan.

E'tirof etish lozimki, har bir xalqning o'z milliy o'yinlari va ularni tashkil qilish marosimlari mavjud bo'lgan.

Arab manliklarida asosan otda poyga, otni sakratish, chovg'on o'yinlari milliy o'yinlar hisoblanسا، xindistonda filar، ilornarni tutish، ularni o'yinga o'rnatish hamda chimxokkey milliy hisoblanadi. Afrika manliklarida yo'llbars va boshqa yirtqich hayvonlarni ushish, ularni o'rnatish, nayza, kamondan otish kabi turlar eng qadimgi davrdan buyon davom etib kelayotgan o'yinlardir.

Xitoy, Yapon, Koreya, Tayvan kabi sharq mamlakatlarida o'zlariga xos yakka kurashlar (ushu, taekvando, karate, kikboksing va h.) uzqoq davrlardan buyon qo'llanilib kelinadi.

Kavkaz xalqlarida kurash, ot o'yinlari, chekarda va boshqa o'yinlar mashhur hisoblanadi.

Rossiya xalqlari yashash xududlariga qarab (shimol, sharq va janub) chang'ida yurish, konkida uchish, mushlashish (oks), kurash, muzda cho'milish, ol, bug'i, itlarga arava, chana qo'shib poyga qilish kabi milliy o'yinlar tarixi qedimgi avlodlariga borib taqaladi.

Estatish zaturki, qadinda o'yin sifatida foydalangan juda ko'p turlar keyinchalik sportga aylanadi. Bularni Yevropada XIX asrning birinchi yarmida ilk bor tashkil etilgan musobaqalar misolida ko'rish mumkin. Bu faoliyattar xalqaro miqyosga aylanib, keyinchalik turli federatsiyalarning tuzilishiga sababchi bo'ladi. Shu asosda Yevropa va jahon birinchiliklari hamda olimpiya o'yinlarining tashkil etilishiga olib keladi.

Shunday bo'sada har bir mamlakatda o'zlarining milliy harakatlari o'yinlari mavjud. Ulardan asosan bolalarni jismoniy tarbiyalash, bayramlarda xordiq chiqarish, ba'zan esa musobaqa tariqasida foydalaniadi.

Takidlash lozimki, sobiq ittifoq davrida harakatlari o'yinlar asosan jismoniy tarbiya darslaridagina keng qo'llanilib kelingan. Shu sababdan maxsus to'plamlar tayyorlanib, ularda ko'proq Rossiya va uning atrofidiagi mamlakatlarning harakatlari o'yinlari joy olgan. Shu tariqa deyarlik barcha harakatlari o'yinlar sobiq ittifoqchi respublikalarining xalqlari orasida asosiy o'yin bo'lib xizmat qilib kelgan. Sir emaski, O'zbekistonda o'qitilayotgan jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan harakatlari o'yinlarning 70-80% xorijiy mamlakatlarning harakatlari o'yinlaridir. Shunday bo'sada o'yinlarning mazmuni, maqsad va vazifalari umumxalq ehtiyojiga mos kelishimi inkor qilib bo'lmaydi. Chunki ularning mazmunida barcha jismoniy sifatlarni tayyorlashga loyiq bo'gan tarbiyaviy jarayonlar mujassamlashgan.

Xulosa qilib aytganda harakatlari o'yinlar (umum ma'noda) barcha xalqlarning ezu-niyatari, maqsad va vazifalarini o'zida saqlab kelmoqda. Ulardan maqsadli foydalananish va milliy xususiyatlarga moslashtirish lozim bo'лади.

1.2. Mamlakatimizda milliy harakatlari o'yinlari rivojlanish bosqichlari

O'zbek xalq milliy o'yinlarini ikki toifaga ajratish mumkin, ya'ni:

1. Murakkab harakatlari o'yinlar (kurash, ot o'yinlari, dorboz, arqon tortishish, bilak kuchini sinash, tosh (gir) ko'tarish va h.k.).
2. Oddiy harakatlari o'yinlar (xo'rozlar jangi, oq terakmi-ko'k terak, chilik, organg kuydi, to'qiz tosh, bo'ron, shuvoq va h.k.).

Takidlash joizki, kurash, ot o'yinlari (poyga, sakratish, raqs), tosh (gir) ko'tarish kabilari mustaqil sport turi bo'lib hisoblansada, ularning qismlari (element) o'yin sifatida foydalari, xalq istemolida chuqur o'rinn egallamoqda. Milliy harakatlari o'yinlar tushunchasi haqida gap ketса, aytish muninkinki faqat mamlakatimiz xududlarida eng qadingi davrlardan buyon qo'llanilib kelinayotgan o'yinlardir. Lekin ular orasida Markaziy Osyo, Yevropa mamlakatlaridan u yoki bu sabab bilan kirib kelgan va chuqur o'rinalashib, milliyashib ketgan harakatlari o'yinlar ham oz emas. Misol tariqasida "Mushuk bilan sich'on", "Qarmoq", "Qopqon", "Bayrog uchun kurashish", "Yelka urishitirish" (xo'rozlar jangi) va h.k.

Yuqorida takidlanganidek, o'zbek xalq milliy harakatlari o'yinlarining kelip chiqishi va rivojlanish tarixi qadimgi ajodalar va avlodlar tarixiga borib otadi. Sobiq Sovetlar hokimiyyati yillarda zahmatli mehnatlari bilan jahonda nom qozongan arxeologik olim, akademik Yahyo G'ulomov, yaqin davrlar ichida jiddiy qidiruv ishlari bilan shug'llangan arxeolog, tarixchi yosh olim Toshnazar Omonjo'lov va boshqa bir qator mutaxasislarning ilmiy izanishlari natijalaridan harakatlari o'yinlar haqida qiziqarli malumotlar olish mumkin. Ularning ko'rsatishicha Samarqand (Afrosiyob, Omonqo'ton, Registon atrofi), Surxandaryo (Termiz, Dalvarzin tepa, Teshik tosh), Toshkent (Sirdaryo yoqalari va uning atroflari, qurama tizma tog'ları, Chotqol tog' etakları) va boshqa viloyatlarda o'kazilgan qazilma topilmalarida harakatlari o'yinlarni tasvirlovchi shakllar, rasmilar ko'p uchraydi. Shuningdek, toshlarga o'yib chizig'an shakllar va rasmlarda ov qillish, ov qurollari, hayvonlar bilan olishish, parrandalar va hayvonlari o'rgatib o'yнатish kabi holatlar qadimgi ajoddalarning harakatlari o'yinlaridan dalolat etanligini tasdiqlashgan.

Iltizimg'i davrda xalq ommasi orasida juda mashhur bo'lgan milliy o'yinlardan kurash, ko'pkari-uloq, poyga, dorboz, qilichbozlik, nayza uloqtirish, yuklarni ko'tarish kabilari eng qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan harakatlari (murakkab) o'yinlardir. Ularning kelib chiqish va taraqqiy qiliш jarayonlari haqida rasmowy manba'lari juda ko'p desa bo'лади.

Bundan uch ming yil aval yaratilgan "Avesto" kitobida yoshlar va keksalarining salomatligini yaxshilash, uzoq umr ko'rish maqsadida turli vositalar hamda usullardan foydalanish yo'llari ifoda etilgan. Bunda tozalikka e'tibor berish, ovqatlanish, dam olish, uyqu kabi hayotiy ehtiyojlarni meyorida saqlashga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, sof havoda sayr qilish, terlab mehnat qilish, tana (gavda) a'zolarini harakatlantiruvchi va chiniqtiruvchi amallarni (mashqlar, o'yinlar) muntazam ravishda bajarib borishni ko'rsatilgan.

"Hadislar"da dangasalik, turli kasaliklar va nojo'y'a harakatlarning oldini olishta har bir mo'min-musulmon jismoniy mehnat qilishi, turli o'yinlar bilan mashq qilishi, a'zolarni toza tutish zarurligi uqtiriladi. Bularni eslatishdan maqsad shundaki, turli xil harakatlari o'yinlar mazkur faoliyatlarini bajarishni taqazo etadi.

YA'ni kiyinish, tozalikka e'tibor berish, o'yinlarda halol qatnashish, keyin esa yuvinib taranishni talab etadi. Demak, milliy harakatlari o'yintarning mazmun va maqsadida jismoniy sifatlarini o'stirish, insoriy fazilatlarga riyoq qilish kabi ijobjiy xususiyatlar mujassamlashgan.

"Algomish" dostonidagi paxlavonlik, jasurlik, merganlik, chavondozlik kabi hislatlar "Algomish" va "Barchinoy" timsolida yuqori ko'tarinkilik ruhida tasvirlangan.

Algomishning yoshilik davrlarida bobosidan qolgan yoyni (to'qson botmon) ko'tarib turishi faqat aplar avlodni ekanligidan dalolatgina bo'lib qolmasdan, balki qir-adirlarda mol boqib, ot choptirib, kurashib yurganligining ham mahsulidir.

Ayniqsa Barchinoy qo'yan shartlarni (kurash, otda poyga, yoydan o'q otish, merganlik-ning qadamdan tangani urish) bajarishda to'qson alning sandori ko'kaldoshni engani afsona bo'isada, uning negizida qandaydir haqidatlar yotadi. YA'ni qadim zamorlarda Surxon o'lkasida Boboxon tog'lari orasida yashab, pahlovonlikni mashq qilgan yigit qizlar ko'p o'tgan. Ularning avlodlari hozirgi kunda ham kurashda jahon championlari unvoniga sazovor bo'immoqda.

Ana shu xususiyatlarni e'tiborga olib har 2001 yildan bosholab har yili surxondaryo viloyati Boysun tumaniida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan "Boysun

bahori" xalqaro festivali bo'lib o'tadi. Bunda asosan o'zbek milliy o'yinlari tashkil etilib, butun dunyoga efir orqali namoyish etiladi.

Jizzax (1995-1996) va Termizda (1998) xalq milliy o'yinlariga bag'ishlab ilk bor "Algomish o'yinlari" respublika festivallarining o'tkazilishi, ularda kurash, ko'pkari-uloq, poya kabi murakkab harakatlari o'yinlar hamda "Bo'ron", "Shuvoq", "To'qqiz tosh", "Orqang kuydi", bilak kuchini sinash, arqon tortishish kabi milliy harakatlari o'yinlarning qo'llanishi e'tiborga loyiq bo'idi.

Ma'lumki, barcha jahbalarда xotin-qizlar faoliyati dicqat-markazida turadi. Xalq milliy o'yini sifatida "To'maris o'yinlari" Respublika festivali 1999 yil Jizzaxda katta tantana bilan o'tkazildi. Keyingi festivallar Shahrisabz, Guliston, Namangan shaharlariда ham yaxshi taskhil etildi.

Eng muhim tomoni shundaki, mazkur festivallarda o'zbek xalqining milliy madaniyati, ittixori, mehnatsevarligi, o'zaro hamdo'slik kabi fazillatlar mazmun topdi.

Har yili o'tkaziladigan "Navro'z", "Mustaqillik" kuni bayramlari va boshqa ommaviy-madaniy sport tadbirlarida sport turlari qatorida milliy harakatlari o'yinlardan namunalar tomoshaga chiqarilmoqda.

Mainlakada uzlksiz ta'limming tankibiy qismi sifatida ko'p bosqichli sport musobaqalarini "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" o'tkazish un'anaga ayланib qoldi. Ularning dasturlarida, ayniqsa Universiadaning ochilish va yopilish marosimlarda milliy harakatlari o'yinlar ham haqli ravishda o'rinn olmoqda.

O'zbek xalq milliy harakatlari o'yinlarining mohiyati, ularning turlari va qo'llanish usullari haqida ilmiy maqolalar, to'plamlar, o'quv-uslubiy qo'llannmalar anachagini to'planib qoldi.

1991-2006 yillar davomida o'tkazilgan Respublika va xalqaro ilmiy ojumjanlaring to'plamlarida yangi o'yinlar yorildi. Shu bilan bir qatorda milliy harakatlari o'yinlarini o'quv jarayonlariga ko'proq kiritish masalalariga e'tibor kuchaydi.

Jismoniy madaniyat sohasida talim olayotgan tababalar va o'quvchi-yoshlarga milliy harakatli o'yinlarni chuqurroq ularning ongiga singdirish yo'lgaga qo'yilmoqda.

Mazkur muammolar bo'yicha yo'boshchilik qilayotgan mutaxassis olmlar joylarda ancha ko'paydi. J.T.Toshpo'latov, O'N.Ibrohimov, Q.Alimov (Termiz DU), A.Q.Ato耶ev, X.A.Botirov (Buxoro DU), H.T.Rafiyev, R.A.Qosimova, J.E.Eshnazarov (Sam. DU), H.A.Meliyev, B.Bo'ribo耶ev, O.Muqimov (Jiz. DPI) kabilarning ilmiy-ijodiy va tashkilotchilik faoliyatları e'tiborga sazovardir. Shuningdek, R.Abdumalikov, R.Salomov, O.O.Po'latov (O'zDITI), A.SH.Qosimov, F.Xo'jayev (O'zDITI huzuridagi MOI) kabilarning ilmiy ommabop risolalari, maqolalari ham maqsadga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir.

T.S.Usmoxo'jayev dastlabki ilmiy-izlanish faoliyatlarini harakatli o'yinlariga bag'ishlaganligi barchaga ma'lum. Shu sababdan H.Tojiboyev hamkorligida 1963 yilda "Harakatli o'yinlar" to'plamini nashrdan chiqarishga myassar bo'lgan. Keyingi davrlarda ilmiy-pedagogik faoliyati bosqqa muammolarga qaratilgan bo'sada, harakatli o'yinlarni to'plashdan chetlamadi. Natijada "1001 o'yin" (1991), "Milliy harakatli o'yinlar" qo'llanmalarini tayyorlab, respublikadagi ko'p mingli mutaxassislarining mushkulini osorlashdi. E'tiborli jihat shundaki, "Milliy harakatli o'yinlar" to'planiб 500 ga yaqin o'yinlarning mazmuni tasvirlangan. Ularning tarkibida 100 dan ortiq, O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarning borligi quvonchi hodisadir.

1.3. Harakatli o'yinlarning turkkumlari

Harakatli o'yinlarning aksariyati chetdan kirib kelib, ular milliyashib ketgan. Chunki, ularning mazmun, maqsad va mohiyatli yurtimizning iqlim sharoitlari, aholining ijtimoiy mehnat va turmush madaniyatiga mos keladi. Shu sababdan harakatli o'yinlar tarkibida uchraydigan boshqa millatlarning harakatli o'yinlari haqida fikr-mulohazalar yuritilsa ajablanmaslik zarur.

Harakatli o'yinlar metodikasi fani bir necha quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'linda harakatli o'yinlar;

- umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar;

- talaba yoshlar va axoli o'tasidagi harakatli o'yinlar;

- sportdag'i harakatli o'yinlar;

- sog'ligida nuqsoni bo'lgan shaxslar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar. Atoqli olimlar M.Murodov, U.Qoraboyev, M.Jabborov, J.Toshpo'latov, A.Ato耶ev, R.Abdumalikov, T.Usmoxo'jayev kabilarning ilmiy-nazary mulhazzalari hamda o'yinlarning mazmuni asosida milliy va harakatli o'yinlarini quyidagi turkumlariga ajratish mumkin:

1. Tabiat manzaralari, fanlar bilan bog'liq o'yinlar. Bunga "Ko'chat o'mat", "Kartoshka ekish", "Yomg'ir", "Ayoz bobo" kabiarni namuna qilib ko'rsatish mumkin. Ularning mazmuni va o'yin holatlari (joylar, bajarilish tartiblari, qoidalari). Tabiatning go'zalligi, ob-havoning o'zgarishi, sovuq va yomg'irlardan saqlana bilish kabi harakatlar asosida shug'ullanuvchilarning hushyorlik, chaqonlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar va insonnинг aqly fazilatlarini turbiyalashda xizmat qiladi.

2. Hayvonot olami bilan bog'liq o'yinlar, "Qushlar pr...r etib uchdi", "Kalhat keldi, qoch bolam", "Bo'rilar va ovchilar", "Zovurdagi bo'rilar", "G'ozlar", "Tulki bilan xo'roz", "It va qarg'a" va shu kabi juda ko'p o'yinlarda o'zaro munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, o'zini ehtiyyot tutish kabi fazilatlar bilan birgallikda barcha jismoniy sifatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi. Shu asosda bolalarda hayvonot olaniга bo'gan qiziqish, parrandalarni astrash kabi his-tuyg'ular uyg'onishi mumkin.

3. Mehnat bilan bog'liq o'yinlar. Inson faoliyati aqly va jismoniy mehnat bilan belgilanadi.ularni harakatli o'yinlar mazmuniда ham uchratish mumkin. Aqly mehnatga doir o'yinlar turkumiga "Sanash o'yinlari", "Sonlarni yozish va o'ylab top", "Ism yoki buyumlarni ketma ket va aralash turib aytish", "Sakrab

qo'shiq avtish", "Rasmarni tez chizish", "Shakllarni (kubok) joylashtirib o'z holiga keltirish" (shakl yasash) va shunga o'xhash faoliyatlarini aks ettiruvchi o'yinlar kiradi.

Jismoniy mehnati aks ettiruvchi harakatlari o'yinlar ham juda ko'p. Ularga "O'tin yorish", "Poda to'p" (cho'pon), "Qo'sh haydash" (yermi haydash, chopish), "Osilib chiqish", "Tortilish", "Yuk ko'tarish", "Eshak mindi", "Piyoda poya", "Poyezd" va b.q. kiradi. Ularning mazmunida mehnat qilish yo'llari, bajarish usullari hamda chidamlilijni ifoda etuvchi hislatlar mujassamlanadi.

Umuman olganda milliy harakatlari o'yinlarning barchasida aqliy va jismoniy mehnatlar uyg'unlashib, asosan jismoniy barkamollikni tarbiyalashda xizmat qiladi.

4. Ommaviy madaniy tadbirlardacha (bayramlar, to'ylar, turli xil marosimlar, sport musobaqalari va h.k) qo'llaniladigan, ya'ni namoyish va musobaqalashish maqsadida murakkab va oddiy harakatlari o'yinlar qo'llaniladi. Ular takibiga kurash qismilari (elementlari, ot o'yinlari, ko'pkari-ulq, poya), dorboz, tosh ko'tarish, arqaq tortishish, eka urishtrish, xo'rozlar jangi va h.k. kiriladi.

5. Jismoniy sifatlari tarbiyalashda xizmat qiluvchi o'yinlar ham haxil turkumlarga bo'linadi. Ulargaga quyidagi larni namuna qilib ko'rsatsa bo'ladi, ya'ni:
Tezlikka doir o'yinlar: "Qopqon", "Kim oldin", "Insiz quyon", "To'rt oyoglab yugurish" (emaklab yugurish), "Hakkalagan qushchalar", "Uchinchisi oriqcha", turli estafetalar va boshqalar.

Kuchga doir o'yinlar: "Oq suyak", "Chilik", "Yelkada ko'pkari", "Eshak mindi", "Arqaq tortishish", "Bilak kuchini sinash", "Qo'llarda tortinish" va boshqalar.

Chidamlilikka doir o'yinlar: "Oq terakmi-ko'k terak", "Davradan chiqar", "Olamon poyga", "Dorboz", "Oqsoq qarg'a", "Oshiq" (gardjam), "Qilichbozlar", "Besh tosh", "To'qqiz tosh", "Orqang kuydi", "Bo'ta soldi", "Tortishmachoq", "Ko'z bog'lash", "Bekimmachoq", "Kim keldi", "Dorboz", "Zuv-zuv" va h.k.

Yuqorida nomlari keltirilgan murakkab va oddiy (sodda) xapakatni o'yinlari barcha yoshdagilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash bilan birgalikda insoniy fuzillatlardan ma'nnaviy, aqqliy, axloqiy va estetik shakllanishi va ularni yanada takomillashtirishda bevosita xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlarning o'ziga xos atamalarni chuqur o'zlashtirish fanning mazmunini muvofaqiyatli o'zlashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'yin-mashqqlarning maxsus shakli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan yonma-yon holatda shakllanirish

Harakatli o'yinlar- o'yinlarning mustaqil turi bo'lib, har xil harakat turlarini o'z ichiga oladi. Ularning asosiy mazmunini yugurish, sakrash va uloqitirish kabi harakatlarni taskikl etadi.

Harkatli o'yinlarni shakllari- ishtirokchilar harakatini tashkil etish: yakka, guruhli, jamoaviy. O'yinni tashkil qilish shakli uning mazmunidan keilib chiqadi.

Harakatli o'yinlarning uslubiy jihatlari-ishtirokchilarining yoshiga o'yin o'lkazish shart-sharoitiga va xal qinayotgan didaktik vazifalardan kelibchiqadi.

Halq o'yinlari bu- bir necha yillarda buyot xalq orasida o'ynab kelinayotgan va shu xalqning milliy madaniyatining bir qismiga aylangan o'yinlar

Ijodiy o'yinlar bu- o'z mazmuniga hayvonlar va qushlarga taqild qilish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi; ular ma'lum bir qonun va qoidalarga bo'y sinadi hamda ma'lum miqdorda atrof muhitga bog'liq bo'ladi

Jamoaviy bo'lmagan o'yinlar – bu o'yinlarda maqsadga erishishda jamoa ishtirop etmaydi va har bir ishtirokchi bir-biriga bog'liq bo'lmaydi.

Jamoaviy o'yinlar bu – shunday o'yinlarki, unda musobaqalar jamoalar orasida bo'slib o'tadi. O'yinchilar harakati jamoa maqsadiga bo'y sinadi va o'zaro kelishigan xolda amalgalashiriladi.

Sport o'yinlari – qat'iy tartiblashtirilgan o'yin faoliyatini va musobaqalashuvu xarakateriga ega bo'lgan harakatlari o'yinlarning yuqori bosqichidir.

Xilmox-xil turkumlarga bo'linadigan harakatli o'yinlarni o'z vaqida maqsadi qo'llash shaxsning har tomonlama uyg'un xolda shakllanishida o'ziga xos xususiyatga egadir.

Nazorat savollar:

- O'zbekiston mustaqiligi tufayli harakatli o'yinlarni o'rganishdan maqsad nima?
- Harakatli o'yinlar qachon va qanday qilib paydo bo'lgan?
- Turli qit'alardagi xalqlarning milliy harakatli o'yinlari haqida nimalarini bilasiz?
- Harakatli o'yinlarning hozirgi davrdagi foydali jihatlari nimada?
- Milliy harakatli o'yinlarning xususiyatlari nimalaridan iborat?
- O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari qaysi manba'larda mazmun topgan?
- "Harakatli o'yinlar" to'plamlariga qanday baho berasiz?
- Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarning to'plamlaridagi qaysi yangi o'yinlarni o'qigansiz?
- "Algomish o'yinlari", "To'maris o'yinlari" festivallarining dasturiga yana qanday o'yinlarni kiritish lozim?
- "Hadislar" dagi jismoni tarbiyaning ifodalarini bilasizmi?
- Harakatli o'yinlarni turkumlarga ajratishdan maqsad nima?
- Tabiat va hayvonot olamini aks ettiuvchi qanday o'yinlar mavjud?
- Mehnat bilan bog'langan harakatli o'yinlarni ifoda eting?
- Mamlakatda o'tkazilayotgan ommaviy-madaniy va sport tadbiralarida harakatli o'yinlardan qanday foydalanimoqda?
- Jismoni siyatlarni tarbiyalovchi qanday harakatli o'yinlarni bilasiz?

II BOB HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH

2.1. O'qituvchining o'yinka tayyorlanishi

Yaxshi tanlangan o'yin ta'lim va tarbiya muvaffaqiyatining muhim shartidir. O'qituvchi o'yinni o'tkazishga tayyorlanishda o'yinga qatrashuvchilarning sostavini, yosh xususiyatlarini, shuningdek, jismoni tayyorgarliklarini hisobga olib, darsning asosiy vazifalaini belgilashi zarur. Ba'zan yaxshi o'yin tanlansa-da, lekin u yomon o'tishi mumkin. Bunday xollar tanlangan o'yin ishtirokchilarining qiziqish va havaslariga mos kelmasligi natijasida ro'y beradi va tarbiyaviy va vazifalar amalga oshmaydi.

O'qituvchi o'yinni tanlashda mashg'ulot qanday o'tkazilishini (dars tarzida o'tkazilsa, o'yin uning birinchi, ikincchi yoki yakunlovchi qismida tanaffus vaqtida va hakazolarda o'tkazilishi) bilishi kerak. Agar o'yin qishda o'tkaziladigan bo'lsa, o'quvchilarni faollashiradigan va jismoni yuklamani bir teksda taqsimlaydigan serharakatroq o'yinlar tanlanishi kerak.

O'yinni tanlash uni o'tkazish joyi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Kichik yoki katta bo'lmagan tor zallarda chiziq boy'lab turgan holda o'yinni o'tkazish mumkin, unda o'yinda qatnashuvchilar navbat bilan qatnashadilar. Katta zalda yoki sport maydonchada o'tkazilishi mumkin bo'lgan barcha o'yinlarni ya'ni yoyilib, katta va kichik koptochni uloqtrish va sport o'yinlari bilan o'ynaladigan o'yinlari o'tkazildi. qish vaqtida maydonchada o'ziga xos qishki o'yinlar o'tkazildi.

Agarda o'yin ochiq havoda o'tkaziladigan bo'lsa, ob-havo va havoni haroratini (ayniqa qish payida) hisobga olish zarur. Havo harorati past bo'lganda o'yinni o'tkazishni ya'ni o'yin ishtirokchilarini barchasi faol qatnashadi va jismoni yuklama barcha qatnashchilarga bir tekisda taqsimlanadi. Yozda issiq havoda eng yaxshisi kam harakatlanadigan yoki o'ynovchilar navbat bilan qatnashadigan o'yinlardan foydalananish maqsadga muvoqi bo'ladi.

O'yin tanlash shuningdek, o'yin uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarga ham bog'liq bo'ladi. O'yin uchun bu jihozlarni bo'lnasligi o'yinni barbob bo'tishiغا olib kelishi mumkin.

2.2. O'yinni o'tkazish uchun joyni tayorlash

1. Avvalo kerakli asbob-usklinalar, masalan, diametri 8 sm arqondan, jundan, matodan, rezinadan yasalgan koptochkalar (rezina koptochkalar yuqqori harorda tarangligini yo'qotmasligi uchun salqin joyda saqlanadi), voleybol va basketbol to'plari, irg'itish uchunuzunligi 1 m li tayoqchalar, arxon, belbog'lar, bayroqchalar, kigizlar, taxtachalar, bolg'a, aptechka va boshqalar, ko'z og'rig'i kasaldan saqlanish uchun har bir o'quvchining ko'z boylagichi bo'lishi kerak.
 2. O'yin o'tkaziladigan maydoncha tekis bo'lishi, tikan, toshlar, shisha siniqlari va boshqa kerkaksiz narsalardan tozalanib, doimo toza to'tilishi lozim.
 3. Mashg'ulot o'tkazilayotgan paytda maydonchada begona kishilar bo'imasligi kerak. Chunki ular bolalarning o'ayolini bo'ladi va ularni o'yindan chalg'itib, ortiqcha harakatlar qilishiغا majbur etadilar.
 4. Maydonchani asbob-uskunmlar bitan ta'minlash, bandan tashqari, u erdag'i tibbiy buyum va narsalardan ham foydalanish zarur.
 5. O'yinlarni o'tkazishda quyidagi gigiyenik qoidalariiga rivoja qilinishi lozim:
- A) O'yin paytidagi kiyiladigan kiyim harakatlarni qiyinlashtirmay-digan, engil bo'lishi kerak;
- B) Yozda o'yindan so'ng cho'milish kerak;
- V) O'yin boshlanishidan oldin maydonchaga suv sepilishi lozim.
6. O'yinlar suvda o'tkazilsa, o'ynovchilar ko'karib va qaltilrab qolmasligi uchun ularning suvda bo'ladigan vaqt chegaralanishi kerak.

2.3. Maydonga belgilari qo'yib chiqish

O'qituvchi asbob-anjomlarni tayorlab qo'yib, o'yin boshlanguncha maydonga belgilari qo'yib chiqishi mumkin. Bu shunday holatda juda muhimki, chunki maydonga belgi qo'yib chiqishga ko'p vaqt talab qilinadi, masalan, katta sinf o'quvchilari harakatlari o'yindan sport o'yinini o'yashsga o'tishda ko'p vaqt talab qilinadi. Agarda maydonni belgilash etarli darajada qiyin bo'limsa, uni o'yanni mazmunini gapirib berish bilan bir vaqtda bajarish mumkin. Xuddi shunday kichik maktab yonidagi o'quvchilar qo'yib chiqishlari yarmi o'qituvchiga nisbatan o'qilatini o'girib turadi va ularni diqat e'tiborli tarqoq bo'shadil. Bunday holatda CHIRCHIQ DAVALAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«Bo'loq», «Uly» chegaralarini chizishga to'g'ri keladi. Bunday holatda

chegaralarini belgilashni o'yin boshlanguncha belgilash mumkin, va o'yinni mazmuni gapirib berilayotganda faqatgina belgilanganli daliif sifatida ko'rsatiladi.

Tez-tez takrorlanadigan, ayrim o'yinlar uchun, maydonda doimiy ravishda o'tkazish uchun belgilab qo'yish mumkin. Buni engilgina amalga oshirilsa bo'ladi y'a ni, o'yin uchun qattiqroq joy bo'lganda, unda bolalarni sevimli o'yinlarni o'yash uchun alohida maydon ajratib berishgani imkoniyat bo'ladi.

Chegaralarini aniq, yoriq holda chizilgan maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda chiziq ko'rinarsiz holda chizilgan yoki belgilangan bo'lsa, o'yinga qiziqib, berilib ketgan bolalar shartli ravishda qo'yilgan chegaralarini ko'rishi ancha murakkab bo'ladi.

O'yin uchun chegara chizig'ini bolalar shikastlanmasligini hisobga olgan holda devordan, chiziqdan yoki buyumlardan kamida 3 m masofada chizilishi kerak. Ayniqsa bir tomonдан ikkinchi tomonga yugurib o'tishda, katta guruh o'yin qatashchilari bir «O'yin» chegarasidan ikkinchisiga yugurib o'tishda juda muhimdir.

2.4. O'yinni tushuntirishda o'qituvchining turish joyi va o'yinchilarni joylashtirilishi

O'yinni tushuntirishga kirishishda avval, bolalarni shunday joylashtirilishi kerak-ki, chunki ular o'qituvchini yaxshi ko'rish va uni gapirib borishini eshitish kerak. Hammadan yaxshisi bolalarni shunday joylashtirilishi kerakki, ular o'yinni qutdi shu holatdan boshlanishi kerak bo'ladi.

Agarda o'yinni boshlash uchun o'yin ishtirotchilarini doirada turishini talab qilinadi, o'qituvchi o'yinni mazmuni gapirib berish uchun o'yin ishtirotchilarini orasida turadi, agarda ular kamchiilik bo'lsa yoki o'yin ishtirotchilarini soni ko'p bo'lganda, unda doirani o'rtasiga 1-2 qadam chiqadi (ommaviy o'yinlarda). Doira markazida turish man etiladi, chunki o'ynovchilarni yarmi o'qituvchiga nisbatan o'qilatini o'girib turadi va ularni diqat e'tiborli tarqoq bo'shadil. Bunday holatda

agarda o'ynovchilar ikkita guruhga bo'lingan bo'lsalar, ular bir-biriga qarshi uzoqroq masofada saflanib turadilar («Oq terakni, ko'k terak», «Raqam chiqarish»), o'yin tushuntirish vaqtida ikkala guruhni bir-biriga yaqin olib kelinadi, gapirib bo'lidan keyin yana «o'yin» chegarasiga olib borib qo'yiladi. O'qituvchi yon tomoni bilan turib, goo' birinchisi, goh ikkinchi gurunga uchirilib qarab o'yinni tushuntira boshlaydi.

Agarda o'yin tarqalgan holda harakat qilish bilan boshlansa (quvlashtmachoqqa o'xshash) unda bolalarni safga turg'izish mumkin (agarda ular kamchilik bo'lsalar) yoki o'zini oldiga shunday guruhlarni tashkil etadiki, hammaga o'qituvchini eshitiladigan va yaxshi ko'rindigan joy bo'lishi kerak.

O'yinni tushuntirish paytida o'ymovchilarni bino ichida chiroqqa yoki quyosha yuzi bilan qaratib qo'ymaslik kerak, chunki o'ymovchilarga o'qituvchini ko'rishiga halqaqt beradi va ular tushuntirishni o'ziga yaxshi qabul qilinaydilar. Agarda o'quvchilar tushuntirish vaqtida deraza tomonqa qarab tursalar, deraza oldida bo'layotgan har xil voqealarga oval bo'lib qolishadi. Shuning uchun o'qituvchi ko'rinarli joyda turishi kerak yoki iloji bo'lmagan vaqtida quyosh yuzi bilan barcha qatnashchilarga ko'rinarli joyda turishi shart.

O'qituvchi iloji boricha guruhga yaqin yoki ulardan xuddan tashqari uzoqlikda turmasligi kerak. U o'ziga shunday joyni tanlashi kerakki, unga o'quvchilar xulqini tekshirish qulay bo'lishi kerak shuning uchun o'ymovchilarni esa shundan saiga turg'izish kerakki, ular o'yin bajarish uchun dastlabki holatda turmagan bo'isalar, unda ularni bo'ladigan keyingi o'yinlarga qulayroq joyga qayta saflanish kerak.

2.5. O'yinni aytib berish (Hikoya qilib)

O'yinni o'tkazishda katta muvaffaqiyatga erishishdagi omillaridan biri, uni tushuntirishiga bog'iqidir. O'yinni tushuntirib yoki hikoya qilib berishdan oldin, o'qituvchi o'zida o'yin to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

O'yinni tushuntirish aniq va qisqagina bo'lishi kerak. Bolalarda o'yinni boshlash oldidan o'yin oldidan hayajonlanish holatida turadilar va uzoq vaqt

davomida tushuntirilsa o'yinni idrok qilishiga sabiy ta'sir qilishi mumkin. Kichik nolhada o'yinlarni hikoya tarzida, ifodali, qiziqarli shaklda o'tkaziladigan o'yinlardan tashqari bo'lishi mumkin.

Ilikoya qilib berilishi mantiqiy to'g'ri, ketma-ketlikda bo'lishlik uchun o'yinni tushuntirishi bo'yicha reja to'zish shart. O'yinni asosiy mazmunini aytilib uchun quyidagi reja to'zishni tavsya qilinadi: 1) o'yining nomi; 2) o'ymovchilarning roli va ularning turish joyi; 3) o'yinni borishi; 4) o'yinni maqsidi; 5) o'yin qoidalari. O'yinni bunday hikoya qilish rejasи o'yinni mazmunini to'liq ketma-ketlikda ochib berish imkoniyatini beradi. O'qituvchi o'yinni borishi to'g'risida hikoya qilib borar ekan, uni oxirida bolalarni esida yana ham yorqin qolishligi uchun o'yinni asosiy qoidalari to'g'risida ham gapinish zarur.

O'yinni jo'shqinlik bilan hikoya qilinishi shart. O'yinni haddan tashqari biland ovoz bilan tushuntirish mumkin emas. Eng yaxshisi o'yinni sekin, ravon ovozda, ayrim vaqtida iloji boricha ovozni baland ko'tarish yoki ovozni pasaytitirish bilan olib borish kerak, chunki bunda bolalarni ayniqsa diqqatini o'yinni mazmunini u yoki bu holatiga qaratiladi.

O'yinni gapirib berayotganda, albatta bolalarni so'z boyligini hisobga olish kerak va tanish bo'lmagan va murakkab so'zlarini, terminlarni ular uchun ishlashish mumkin emas. Agarda ular uchun yangi tushuncha, yangi so'zlar berilayotgan bo'lsa, uni albatta tushuntirish zarur.

O'yinni yaxshi o'zlashirib olishlari uchun so'zlab berishni ko'rsatish bilan bioga qo'shib olib borishni tavsuya qilinadi. U to'liq ravishda ham bo'lmasi shiga olyaligini hisobga olish mumkin: o'yinni ayrim hoatlari mometlarini va ayrim harakatlarni imo-ishora bilan tushuntiriladi. O'yuni usullari va eng ko'proq murakkab holatlari xuddi o'zday to'liq ko'rsatish mumkin. Ko'rsatishga o'yin ishtirokechilarini o'zlarini jalb qilish foydali bo'лади.

O'yinni mazmunini bayon qilinayotganda, albatta bolalarni kayfiyatini hisobga olish shart. Agarda o'qituvchi, o'yinni gapirib berayotganda bolalarni

diqqatini pasayganligini sezib qolsa, unda u tushuntirishni qisqartiradi yoki ko'proq qiziqarti va joniroy o'tishga harakat qiladi. Agarda gapirib bo'lgandan keyin ayrim o'yin qatnashchilaridan savollar to'shadigan bo'lsa, bunday vaqtida barcha o'yin ishtirokchilarini diqqatini o'ziga tortgan holda baland ovoz bilan javob berishi lozim. O'yinni mazmunini gapirib berish mumkinki, uni bolalar faqatgina birinchchi marta o'ynayotganda uni takrorlanayotgan bo'lsa, unda tushuntiriladi. O'yin ishtirokchilarini o'yinni mazmunini xotirasida tiklash uchun eng yaxshisi bolalarni o'zlarini jalb qilinadi.

2.6. Yordamchilar tayinlash

O'qituvchi asbob-uskunalarini tarqatish va o'mnatish, o'yin qoidalarining bajarilishini kuzatish va natijalarini hisobga olib borish uchun o'ziga yordamchilar tanlab olishi mumkin. Yordamchi o'yinning bo'lajak tashkilotchisidir. Yordamchi o'yin ishtirokchilariga xolisona munosabatda bo'lishi kerak. Keng joylarda o'ymaladigan o'yinlarni o'tkazishda ish o'yinlar bo'yicha tajriba ortirigan o'quvchilarning o'qituvchiga yordamchi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Sog'iig'i yaxshi bo'lmagan va jismoniylar tarbiya darsidan vaqtincha ozod etilgan o'quvchilarni o'yinda kuchi efgancha qatnashtrish uchun ham yordamchi qilib tayinlash mumkin. Bahzan intizomsizroq yoki haddan tashqari faol bolalarning xulqini yaxshilash maqsadida ularni ham o'qituvchiga yordamchi qilib tayinlandi.

O'yinni bolalar charchashini ko'tmasdan, harakatlardan ularga qanchalik ta'sir etayotganiga qarab tamomlash lozim. O'yinni qancha vaqt davom etishi ishtirokchilarning soniga yoshiga, o'yinning harakteri va surhatiga, texnik usullarning (asboblarining) miqdoriga, ob-havo va sharoiti va hakazolarga bog'liq bo'ladi.

O'ynovchilarning jo'shchin holatlariga qarab o'yinni tartibga solish va boshqarish, uning maqsadini, qoidalaring mahnosini va ahamiyatini bilish kerak. O'quvchilarning o'yin qoidalariiga rioya qilish doimo o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim. Chunki o'yin qoidalariiga rioya qilish katta tarbiyaviy

ahamiyatga molikdir. O'qituvchi odilona hakamlik namunasini ko'rsatishi, o'yovchilarning xatolarini shoshilmasdan va mulohazakorlik bilan qayd qilib borishi va har bir o'yinchining umumiyligini qoidalariiga bo'y sunishga majbur qilishi kerak. O'yinda ayniqsa, guruhli o'yinlarda sharoiting barcha ishtirokchilar uchun bi'r bo'lishini sezgirlik bilan kuzatib borish zatur. Har bir bolaga o'yindagi bosh imkonini berish maqsadida o'fslarning eng muhim sharti-intizom va unga qat'iy amal qilinishidir.

2.7. O'qituvchi tomonidan o'yinboschini tanlash

Ko'pehlilik o'yinlarda o'yinboschini bo'lishini talab qilinadi. O'yinboschini vaqtinchi bajaruvchi bo'lish o'yinchilarga kattagina tarbiyaviy jihatdan ta'sir etadi. Shuning uchun bu rolda iloji boricha ko'p midordagi o'yinchilar qatnashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. O'yinboschi har xil usullar bilan tayinlash mumkin. O'qituvchi uni o'yinda turgan o'mrini hisobga olgan holda o'yinboschini tayinlaydi. Bu usulni afzalligi shundaki: o'yinboschini odatda ko'proq munosib o'yinchilar saylanishi mumkin: bu usul vaqt bo'yicha ko'proq tez hisoblanishiadi (dars uchun juda muhim). Bu usulni salbiy tomoni shundaki, bolalar o'yinboschini tayinlashda qatnashmaydilar, bunday holatda ularni tashabbusini bosib qoyadi. Odadada bu usul bilan qachonki bolalar hali bir-birlari bilan tanish bo'imasdan, binchli marta o'yinash uchun to'planishganlar, shuningdek, vaqt kam qolganda yoki oldindan belgilab qo'yilgan o'yin qatnashchisini tarbiyalash maqsadida o'qituvchi o'yinboschini tayinlash kerak. O'qituvchi o'yinboschini tayinlashda o'zini uni nima uchun tayinlayotganligini asoslab berishi kerak, chunki ayrim o'yinchilarni qiziqishi to'g'risida o'ylashta sabab qoldirmaslik kerak.

O'yinboschini qur'a (chek) tayinlash bo'yicha tayinlash usuli ham bor. Chek tayinlashni sanash yo'lli bilan o'tkazish mumkin. Bolalar doiraga turadilar va birorta tayinashni boshlaydilar, har bir so'zni talafuz qilingandan keyin navbat bilan o'yinchilarni ko'rsatadi. Oxirgi sanoq kimga kelib taqals, o'sha o'yinboschi

bo'ladı, yoki uni teskarisi, o'yinchı doiradan chiqib ketadi va yana sanash qiladilar. Bu o'yin ishtirokchilarida uyushqoqlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalashga yordamlashadi va faollikni oshirishga yordam beradi.

Sanash usuli vaqt bo'yicha nisbatan uzoq davom etadi, lekin buni darsdan tashqari o'kaziladigan o'yinlarda tez-tez foydalaniadi. Ayrim holada sanash usulini darsda ham qo'llash mumkin, ayniqsa bolalar ko'proq yuklama olganda ya'ni kuchli qo'zg'olish paydo bo'lgandan keyin ularni tinchlatish uchun qo'llaniladi. Sanash bilan matnni ongli ravishda qo'llanilsa bolalarni nutqini rivojlantrishga yordam beradi.

Koptokni uloqitirishni chek tashlash ko'rinishida qo'llash mumkin. Kimda kim tayoqchani, toshni, koptokni uzoqqa uloqtirsa, o'sha o'yinboshi bo'ladı. Lekin bu usul judu ko'p vaqtini talab qiladi va buni darsdan tashqari vaqtida ochiq havoda o'yinlarda foydalananish mumkin.

Chek tashlash yo'li bilan o'yinboshini saylash har doim ham yaxshi samara bermaydi. Lekin bu usulni bolalar o'zları mustaqil ravishda o'yin o'yinayotganlarida tez-tez qo'llaydilar, chunki bu ular o'tasida baxslarni kelio chiqarmaydi.

O'yinboshini saylashni eng ko'proq qulay usullaridan biri, bu shug'ullanuvchilarning o'zlarini tanlashi hisoblanadi. Bu usulni pedagogik munosabatlari juda ijobjiy bo'lib, bolalarни jamoatchilik xoxishini namoyon etadi, natijada odada ko'proq imunosib o'yinboshini sayylanadi. Biroq kam tashkil qilingan bolalar o'tasida bu usulni qo'llash ancha qiyin, chunki o'yinboshini o'yimi bilmaganligini shaxsiy sifati bo'yicha emas, guruhda ko'proq kuchlilarni taqibi ostida saylanishi mumkin.

Shuning uchun o'qituvchi bolalarga iloji boricha «Kim yaxshi yuguradi, kim aniq nishonga tegizadi» usulida nomzodlarni tayinlashni taviya qiladi.

O'qituvchi o'yinboshini tayinlashni navbatga qo'yildi, chunki har bir o'yin ishtirokchisi bu o'rinda bo'lsalar, ular o'yinda ma'lum darajada javgartlikni xis

qiladilar. Bu o'yin ishtirokchilarida uyushqoqlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalashga yordamlashadi va faollikni oshirishga yordam beradi.

O'yinboshini tanlashda yuqorida ko'rsatilgan usullarni pedagogik vazivani qo'yitishiga qarab almaslab qo'yish kerak, ya'ni o'qituvchi o'z oldiga, maslahg'ulotni sharoitiga va o'yinni karakteriga qarab, o'yinovchilarni soniga va ulorni kayfiyatiga qarab vazifani qo'yadi.

2.8. Guruhlarga bo'lish

O'qituvchi, o'yinovchilarni yaxshi bilganligi sababli, kuchlari bir-biriga teng bo'lgan guruhlar tashkil etadi. Lekin o'yinovchilar guruhlarni tashkil etishda faol qatnashmaydilar. Biroq bu usul katta sinf o'quvchilari o'tasida murakkab yoki qiyin harakatlari va sport o'yinlarini o'yinovchilarda qo'llaniladi. Bunday usullarda guruhlarga bo'ylish kuch tomondan teng bo'ladı.

O'quvchilarni sanash yo'li bilan guruhlarga bo'lish mumkin: masalan, o'quvchilarni safga saflab, raqam bilan («Bir», «ikkiga») sanaydilar, shundan bo'ng birinchi tartib raqamlilar birinchi guruhnini, ikkinchi raqamlar boshqa guruhnini tushkil etadi. Shunday uchul bilan 3-4 guruhlarga ham bo'lish mumkin. Bu usul vaqt bo'yicha eng ko'proq tez bo'lib va uni hammadan ko'ra tez-tez jismony arbiya darslarida foydalaniadi. Bunday usulda guruhlarga bo'lish kuch jihatdan har doim ham bir xil bo'lmaydi.

O'yin ishtirokchilarini guruhlarga figurali yurish yoki bir kishiliq qatorda haradat qilish vaqtida sanash yo'li bilan bo'lish mumkin. Lekin har bir qatorda o'yin uchun guruhdan qancha o'yinchli bo'lishini talab qilinsa, shuncha o'yinchli bo'lishi shart. Bunday usulda bo'lish guruhlar tarkibida tasodifan kirib qolgan va kuchlari teng bo'imasligi bo'lishi mumkin.

Darsda o'kaziladigan o'yin uchun, oxirgi ikkita usul juda qulaydir, chunki un vaqt bo'yicha uzoq davom etmaydigan va bitta mashqdan boshqa mashqqa qabitilay ravishda o'tishga imkon beradi.

Kelishish bo'yicha guruhgi bo'lish yaxshi usul hisoblanadi. Bolalar teng ikki guruhlarga bo'linib, o'z sardorlarini saylaydilar, o'zlarini bir-birlari bilan kelishib nom

qo'yishib sardorlar oldiga boradilar, ularni aytigelan nomlariga qarab tanlab oladilar. Guruhlarga bunday usulda bo'linishi, ularni barchasini kuchi bo'yicha bir xil bo'tishiga olib keladi. Shuning uchun bu usulni bolalar juda yaxshi ko'radilar, chunki u o'ziga nisbatan o'ziga xos o'yin hisoblanib, ko'p vaqtini talab qiladi, shuning uchun uni ko'proq seksiya mashg'ulotlari, sayda va boshqa joylarda qo'llaniladi «Kelishuv» usuli kichik va o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan o'yin o'tkazilayotganda foydalaniлади.

2.9. Guruh sardorlarini tayinlash

Guruhlari o'yintamani tashkil etishda guruh sardorlariga katta vazifa yoki rol beriladi. Ular o'zlarini gunuhlarini o'yin vaqtidagi xulqlariga va ayrim o'yinchilarni xulqlari uchun to'liq javob beradilar. Kamida sardortari to'g'ridan-to'g'ri o'quvvatining yordamchisi hisoblanib, ular o'yin ishtirokchilarini tashkil etadi va joylashtiradi, o'yin jarayonida o'zingin guruhsini o'yinchilarini intizomiga va o'ynovchilarni o'yin davomida kuchlarini to'g'ri taqsimlashini kuzatib boradi.

Guruh sardorlarini o'yinchilarning o'zları tayinlaydi, ayrim holatlarda esa o'quvvatchi tomonidan tayinlanishi ham mumkin. Pedagogika nuqtai nazardan shu tomonini ko'proq qadrlik, sardorni o'ynovchilarning o'zları saylaydilar, chunki ular bir-birini qadr-qimmatiga qarab baholasini o'rganadilar va o'zlarining o'rtoqlariga ishonch bildirgan holda uni ko'proq javobgarlikni oshirishga undaydilar. Agarda o'ynovchilar etarli darajada tashkil etilmagan bo'lsa, bir-birini yaxshi bilmasa, unda o'quvvatining o'zi sardorni tayinlandi. Ayrim vaqtida u javobgarlikni yuklab, o'quvvatchi etishmaydigan xususiyatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Sardorlarni tayinlash bo'yicha bo'lish usuli - Dastlab bolalar ikkita sardorni saylab olishadi, keyin sardorlar navbat bilan o'z guruhlariiga o'yinchilarni tanlab oladilar. Bu etarli darajada tez usul hisoblanib va guruhlari kuchlari bo'yicha teng hisoblanadi. Bu usulning salbiy tomoni shundaki, har bir guruhi sardori o'zlariga bo'sh o'yinchilarni olishni xoxlamaydilar, natijada tez-tez bolalar o'rtaida

kelishuvchilikka olib keladi. Bu kamchilikni yo'qolish uchun tashashni oxiriga olib bormasdan oq, qolgan o'yinchilarni sanash yo'lli bilan ajratiladi. Sardorlarni oyinlarni faqatiga katta yoshdag'i makkab o'quvchilar o'rtaida qo'llash mumkin, chunki bu ushi qo'llasha o'yinchilardan yaxshi bilimi va ularni kuchlari bo'yicha to'g'ri baholashni bilishni talab qilinadi.

Nihoyat doimiy guruhlarga bo'lib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bu usul sport oyinlari uchun o'ziga xos bo'lib, biroq murakab bo'lgan harakatli o'yinlarda, oyinlari shunday holatdaki ya'ni shu bo'yicha musobaqa o'tkazilayotganda mumkin qadar qo'llash mumkin.

Barcha bu usullar bilan guruhlarga bo'lishida o'yinni karakteriga qarab o'yinchilurni tarkibiga mos kelganda, shuningdek o'yinni o'tkazishdagi turli-tuman shartotlarda qo'llash mumkin.

2.10. O'yinda rahbarlik qilish

(tayanchsiz holada) zarb berish-awval joydan, keyin yugurib kelib-1, 2, 3 qadam; har xil balandlik va oraliqdan uzatilgan to'pga zarba berish, to'siqqa qarshi zarba berish. O'rgatish mashqlari va ularni qo'llash jarayoni barcha xujum usullari uchun bir metodik tartibda analga oshiriladi.

Yondoshshiruvchi mashqlar.

1. Joydan ikki oyoq bilan debsinib sakrash, havoda vertikal uchish; shu mashq-harakatlantish va to'xtashdan so'ng; shu mashq-sakrab 90° , 180° va 360° aylanib; bir, ikki, uch qadam yugurib ikki oyoq bilan debsinish asosida vertikal sakrash; oxirgi qadanda-o'ng oyoq oldinda, chap oyoq keyin birlashtiriladi.
 2. Yugurish ritmini o'zlashtirish: o'chov bo'yicha qadamlash, tovushga no'jal qilish.
 3. Bilak-panja bilan to'pni urishni o'zlashirish: to'pni urish, tizza bilan o'tirib, qo'lini qisman orqaga harakallantirish, zarba berish vaqtida qo'l to'liq yozilgan bo'lishi kerak; amartizatorda, devor oldida zarba mashqi.
 4. Tennis to'pini yugurib kelib sakrab to'r ustidan tashlash.
 5. Rezina amartizatorga makhmalangan to'pga sakrab zarba berish: joydan va yugurib kelib.
 6. Shtativga o'matilgan to'pga to'r ustidan zarba berish.
 7. Uchib borayotgan to'pga zarba berishni o'zlashtirish. To'pni turli balandlikda irg'itib va bosh ustidan: joyda turib va sakrab. Shu mashq juftlikda to'p uzatishdan.
 8. "To'p otish moslamasidan (pushka) yo'naltirilgan to'pni to'r ustidan zarba berish: to'p turji balandlikda otiladi. Agar bunday moslama bo'lmasa, to'pni sherik yoki o'qituvchi tashlab beradi.
 9. To'p uzatishdan xujum zarbasи.
 10. 4, 2, 3-inchi zonalardan xujum zarbalari-to'pni uchish yo'nalishi yugurib kelish yo'nalishiga mos bo'lishi kerak: 4-chi zonadan 5-chi zonaga, 2-chi zonadan 1-chi zonaga (diagonal bo'ylab). To'p uzatish awval yaqin zonadan o'rita
- balandlikda, past balandlikda, to'rdan uzoqroq, to'p uzatish xujumchiga teskari (orqa bilan) turgan holatdan, uzun to'p uzatish, orqa zonalardan.
11. Yon chiziqlar bo'ylab: 4-chi zonadan 1-chi zonaga, 2-chi zonadan 5-chi zonaga. To'p uzatish yo'nalishi 1-chi mashqdagidek.
 12. Aniq hujum zorbalarini bajarish. Nishonlar qo'llaniladi, maydon zonalari belgilanadi. Awval zorbalar sekin va to'p tushirish joyiga kattiqroq uzatiladi. Keyin zarba kuchi ortitrib boriladi, to'p tushirish joyi esa toraytirib boriladi.
 13. Hujum zorbalar; to'g'ri yo'nalishda, burib, orqa zonalardan uzatilgan (to'pni (4-chi zonadan) yonlama zarba berish, 6, 5-chi zonalardan uzatilgan to'pni 2-chi zonadan hujum qilish).
 14. 3 va 2-chi zonadan hamda orqa zonalardan hujum qilishni o'zlashtirish sari zarba berish usullari almashirish beriladi.
 15. Hujum zarbasi va chalg'itib tashlashni taqid qilish mashqlari (sakrab bir yoki ikki qo'l bilan).
 16. To'siqqa tekkazib "aur"ga zarba berish. To'siqchilar 2 va 4-chi zonalarda stolga turib to'siq qo'yadi. To'siqdan sapchitib zarba berish, chalg'itib, to'g'itib uzatilgan to'pni xujum qilish.
 17. Orqa chiziqlidan 2, 3, 4-chi zonalardan zarba berish.
 18. Hujum zorbalarini: oldingi chiziq o'yinchisining ikkinchi to'p uzatishidan; birinchi to'p uzatishdan, irg'iishdan; orqa chiziq zonalardan chiqib to'p uzatishlardan zarba berish mashqlari.
 19. 3-chi mashq, to'siq qo'yuvchi o'yinchilar qarshiligidagi bajariladi – barcha taktik inkoniyatlar (variantlar) qo'llaniladi.
- Zarba berish usullari texnikasini takomillashtirish quyidagi mashqlar guruhlarini o'z ichiga oladi:
- A) Har xil to'p uzatish turlarida nishonlarga aniq zarba berish;
 - B) Turli vazifalar asosida qo'yilgan yakka va guruhli to'siqlarga qarshi zorbalar berish;
- V) Aniq vazifani bajaruvchi raqib himoyachilariga qarshi zorbalar berish.

G) Kiritilgan to'pni qabul qilgandan so'ng to'siqqa va himoyachilariga qarshi zarbalar berish.

O'zining to'p iрг'itishidan belgilangan nishonlarga zarbalar berish. To'r chegarasiga (antennaga) 3-chi zonadan uzatilgan to'plarga zarbalar berish. Shu mashq, faqat to'p uzatishlar 2 va 4-chi zonalarda bajariladi. Shu mashq, faqat hujumchi sapchituvchi ko'prikhadan debsinadi.

Hujumchi kutmagan holda 2, 3, 4-chi zonalardan uzatilgan ikkinchi to'pni hujum qilish. Bir o'yinchini turli zonalardan uzatiladigan to'pni 4, 3, 2, 3, 4-chi zonalardan ketma-ket zarbalarini bajarishi.

Hujumchi 4-chi zonadan. To'p uzatish 6-chi zonadan 3-chi zonaga, 3-chi zonadan to'siqni taqlid qiladi-2-chi zonaga harakatlanadi, 3-chi zonadan uzatilgan to'pni hujum qiladi, keyin 3-chi zonada to'siq, hujum 4-chi zonadan va hakozo.

Past uzatilgan to'pdan bog'lovchi o'yinchchi oldidan va orqasidan zarbalar berish (birinchi to'p maydon orqasidan uzatiladi).

Barcha to'p uzatish turlaridan himoyachilardan bo'sh qolgan zonalarga zarbalar berish (hujumchi harakatlanayotgan vaqda, 1-2 ta himoyachi o'zining daslabki jollarini o'zgartirib turadi). 3 (2, 4) zona o'yinchisi tomonidan uzatilgan 2-chi to'pdan zarbalar berish-bitta to'siqqa qarshi maydonni himoyalamanmagan joyiga (to'siqchi faqat ma'lum zonani to'sadi). To'siqdan "aut" ga zarba berish (birinchi to'p uzatish maydon orqasidan).

VIII BOB. QO'L TO'PI O'YININING TARIXI, QOIDALARI, TEHNİKASI

VA TAKTIKASINING TASNIFI

8.1. Gандбол mashg'ulotlarida o'yini texnikasi

Gандбол (nemischa hand - qo'l, ball -to'p), qo'l to'pi — sport o'yini. 19-asr oxinda Yevropada paydo bo'lgan. Daniyalik Xalger Nilson ixtiro etgan (1898). Gандбол uchun kattaligi 40x20 m li maydon kerak; og'irligi 325—475 g, aylansasi 54—58 sm bo'lgan charm to'p bilan o'ynaladi. Maydonning ikki tomonida eni 3 m, bal. 2 m bo'lgan darvozalar o'matiladi. Har bir jamoada 7 yoki 11 o'yinchchi qatnashadi. O'yinchchi to'p bilan faqat 3 qadam qo'yishi va uni qo'jida 3 sekuntgacha tutib turishi mumkin. O'yin 2 bo'limdan iborat bo'lib, erkaklar musobaqasi 1 soat, ayollar musobaqasi 50 minut davom etadi. Xalqaro Gандбол federatsiyasiga (IHF; 1946 yil asos solingan) 106 mamlakat a'zo. 1972 yildan erkaklar, 1976 yildan ayollar Gандболи Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan.


1938 yildan erkaklar o'ttasida, 1956 yildan ayollar o'ttasida jahon birinchiligi o'tkaziladi.

O'zbekistonda Gандбол 1923-24 yillarda paydo bo'lib, birinchi musobaqa 1926 yilda Toshkentda o'tkazilgan. 1991 yil O'zbekiston Respublikasi Gандбол federatsiyasi tuzildi. Respublikaning barcha viloyatlarida Gандбол bo'yicha bolalar sport maktabları, erkaklar, ayollar va bolalar jamoalari bor. 1991 yildan O'zbekistan championati muntazam o'tkaziladi. O'zbekiston Gандболchilari temra juniasi (ayolar) Osivo championatida 4-o'rinni egalladi va Germanyada o'tkazilgan jahon birinchiligi musobaqalarida qatrashdi (1997). O'zbekistonda xizmat ko'rsagan sport ustozlari F. Abdurahmonov, V. Kaplinskiy, xizmat ko'rsatgan sport ustasi, Olimpiya o'yinlari va jahon championi M. Vasilyev, Xalqaro miqyosdagi sport ustasi, jahon championi S. Zemlyanova, sport ustalari A. Abzalova, Olga Abdulla va boshqalarning Gандбол rivojanishida katta hissasi bor.

Hujum va hujumchi o'yinchining texnikasi. Gандбол lo'yini hujumchisi maydonda ko'chib yurib-yurish, yugurish va sakrashlarni bajaradi. Bular yordamida u himoyachilaridan qutubil, sherkilar bilan o'zaro hamkorlik uchun joy

tanlaydi. O'yinchisi o'yinda doimiy ravishda o'zgaruvchan vaziyatga duch kelib, uni engib o'tishga to'g'ri keladi. To'xtash ikki usulda: bir oyoqda va ikki oyoqda tormizlanib bajariladi. Bir oyoq oldinga qo'yilib, uni uchi iekariga buriadi va harakat tormozlanadi [4]. Ikki oyoqda to'xtash esa odatda, sakrashdan oldin bajariladi. Kutilmaganda oldinda himoyachi paydo bo'lib, uni aylanib o'tadi, ilonizi harakat qilish zarur bo'ladi (119-a,b,d rasmlari). Gandyolo'yinchisi "mokisimon" yugurish deb ataladigan texnikani egallashi niroyatda zarur, chunki, u yugurayotib 180° ga burilib qolishiga to'g'ri keladi. Bu holatda oldinga qo'yitadigan oyoq burilish va teskari yo'naliishga depsinish uchun xizmat qiladi.

To'pni egallash texnikasi o'ziga quyidagi usullarni: to'pni ushslash, uzatish, olib yurish va otish (uloqtirish)ni qamrab oladi.



119-rasm

To'pni ushslash. Bu harakat faoliyatini davom eirish uchun to'pni egallash usuli hisoblanadi. Ushlash biti yoki ikki qo'llab amalga oshiriladi. To'pni ushslash uchun qo'llarni to'pga tomon cho'zish va kaflarning ozinigina pastga qaratish, barmoqlarni erkin qo'yish zarur. To'p kerakli masofaga etib kelgan zahoti, kaftlar unga yaqinlashadi va barmoqlar to'pni ushlab oladi. To'pni ushslash paytida to'pga qarab, imkon qadar uni qo'llarda mahkam ushlab qolishiga harakat qilinadi.

To'pni uzatish. Bu sheriklar bilan o'zaro hamkorikni ta'minlovchi asosiy usuldir. Aniq va tez uzatishsiz darvozaga muvalfaqiyatl hujum qilish mumkin emas. Uzatishlar keskin va silitab bajariladi.

Keskin uzatish. Bu usul bilan sherikka, zarur masofaga to'pni uzatib yuborish imkonini bo'latdi. Siltash paytida gavdarining burilish darajasi, to'pni qanday kichikanish bilan yuborishga bog'iq. Uzoqqa uzatishlar paytida burilishlar ancha

sezildi, to'pli qo'l esa siltashning oxirida, umuman, to'g'ri holda kelib qoladi. Yaqin masofaga uzatish paytida gavdarining burilish ham mumkin. To'pning tezligini oshirish uchun tirsakni, bilak va panjalarni oldinga tez chiqarish kerak [11].


Siltab uzatish. To'pni yaqin va o'rta masofaga uzatishda qo'llanadi, bu hech qanday tayyorgarlik harakatini talab etmaydi. Faqt to'p kerakli yo'naliishga siltab yuborilib, bukilgan qo'lni to'g'rilash zarur.

To'pni olib yurish. Bu o'yinchiga to'p bilan maydon bo'ylab har qanday yo'naliish va kerakli masofaga harakallanish imkonini beradi. O'yinchisi to'pni egallash zarur bo'lganda, himoyachini biriga bir aldaydi. Olib yurish bir zarbali va ko'p zarbali bo'ladi. Bir zarbali olib yurish quyidagi tartibda bajariladi: to'pni ushlab, qo'lida to'p bilan uch qadam bosib, to'rinchi qadam oldidan to'p erga urladi. Shunday sakrangan to'pni ushlab, o'yinchisi to'pni shergiga uzatishdan oldin yoki darvozaga uloqtirgandan so'ng, yana uch qadam tashlash huquqida ega bo'ladi. Ko'p zarbali olib yurish bir qo'lda ketma-ket to'pni pastga urib olib yurish bilan bajariladi. Harakat yo'nalini o'zgartirish uchun to'pga barmoqlarning tegishi joyi ham o'zgartiladi. Masalan, harakatni o'ngga boshlash uchun to'pga o'ng-yuqoridaan ta'sir ko'rsatiladi [27].

Otish (uloqtirish). Bu darvozaga to'p tashlash imkonini beradigan usuldir. Bilak va panjalar holatiga bog'iq ravishda, to'pni qo'llidan chiqarish lahzasida otish batanddan va yon tomondan amalga oshiriladi. Otish paytida to'pni bevosita darvozaga otish yoki maydon yuzasidan sakratib yuborish mumkin. Bu harakat yugurib kelib, otish belgilanadi. Yugurib kelish-bunda sportchi qo'lida to'p bilan uch qadam bosish huquqiga egadir. Qolgan barcha tayyorgarlik harakatlari, ya'ni otish tayanch holatidan, sakrab yoki yiqilib bajariladi.


Tayanch holatida otish. Buning uchun yugurib kelishning bir necha turli qo'llanadi. Natijada, ikki oyoqqa tayanimish paytida to'pning tezligini oshirish imkonini tug'iladi. Yugurub kelish paytida oddiy qadamlarda siltash va to'pni otish bir oyoqqa tayanganda amalga oshiriladi (120-rasm).

Sakrab otishlar. Himoyachidan tezda ozod bo'lish zarurati paydo bo'lganda.



120-rasm

Ikki tayanchli holatni yuzaga keltirishda, ko'pincha yugurib kelishni chalishirma qadami qo'llanadi. Birinchi qadama (har xil qo'lda otayotganda) sportchi otishi tayorgarlik harakatlarsiz bajaradi. So'ngra o'yinga qo'ini siltash uchun uzatib, yon tomon tezlashtirish yo'nalishi bo'yicha buriladi va chalishirma qadam tashleydi (121-rasm). Oyoqni har xil qo'yish orqali otish amalga oshiriladi. Chalishirma qadami yaxshisi engil sakrash bilan analga oshiriisa, uchunchi qadam qo'yish tez bajariladi. Otishni boshlashdan oldi, ikki tanyanchli holatni barqaror egallab olib bajarisinga intilish lozim.



121-rasm


Tayanib otishlarni gavdani egish bilan bajarish mumkin. To'pni darvoza tonon yo'naltirish, oldidan himoyachi chiqib qolganda gavda egiladi. Egilish qanchalik tez bajarilsa, himoyachining to'g'ri javob reaksiyasingning ishonchligi shunchalik kam bo'ladi (122-rasm).



122-rasm

Yiqilib otish. Himoyachidan bir lajzada qutilish uchun qo'llanadi. Yiqilayotib

otish, joydan turib, yugurib kelib, darvozaga yuzi, yoni yoki orqasi bilan turib bajariladi. Yugurib kelib (yoki joyida turib) otgandan so'ng, tayanch nuqtadagi muvozanat holati qo'yilib, yiqilish davom etishi kerak. Silanishgacha yiqilish burchagi o'yinchining shijoatidagi bog'liq (124-rasm) va u maydon yuzasiga nisbatan qanchalik kichik bo'lsa, himoyachining hujumchidan to'pni olib qo'yishi shunchalik qiyin kechadi. Siltash otadigan qo'l tononga gavdani shiddatli burish bilan analga oshiriladi. Bunday harakat gavdaning oldingi qismini maydon ustidan ko'taradi, oldinga qarashga majburlaydi, otish kuchini oshiradi va o'yinchining yunshoq tushishiga ta'sir ko'rsatadi. To'pni darvoza tomon otib, o'yinchini



123-rasm

Yiqilib otish. Himoyachidan bir lajzada qutilish uchun qo'llanadi. Yiqilayotib otish, joydan turib, yugurib kelib, darvozaga yuzi, yoni yoki orqasi bilan turib bajariladi. Yugurib kelib (yoki joyida turib) otgandan so'ng, tayanch nuqtadagi muvozanat holati qo'yilib, yiqilish davom etishi kerak. Silanishgacha yiqilish burchagi o'yinchining shijoatidagi bog'liq (124-rasm) va u maydon yuzasiga nisbatan qanchalik kichik bo'lsa, himoyachining hujumchidan to'pni olib qo'yishi shunchalik qiyin kechadi. Siltash otadigan qo'l tononga gavdani shiddatli burish bilan analga oshiriladi. Bunday harakat gavdaning oldingi qismini maydon ustidan ko'taradi, oldinga qarashga majburlaydi, otish kuchini oshiradi va o'yinchining yunshoq tushishiga ta'sir ko'rsatadi. To'pni darvoza tomon otib, o'yinchini

qo'llarini polga avval erkin, so'ngra tashlanuvchan harakat bilan qo'yadi. Bunda tana og'irigi, asosan, qo'larga tushadi, amortizatsiya etishmaganda ko'krakda sirpanish mumkin.



124-rasm

Himoya texnikasi va himoyachining o'ziga xos faoliyat. Himoyada o'ynashning bosh vazifasi, o'z darvozasi mudofasini ta'minlash, raqibining tashkil etgan hujumini bartaraf etish va to'pni egallashdir. Bu vazifalarni hal qilish uchun himoyachi maydon bo'ylab tez harakatlana olishi, kutilmaganda harakat tezligi va yo'nalishini o'zgartirishi, o'yinchini to'shihi, uchayotgan to'pni ilgariroq ushlab olishi va olib qo'yishi zarur. Agar himoyachi taylor turish holatini yaxshi egallagan bo'lsa, barcha usullarни muvaffaqiyati bajarish mumkin [23].

Taylor turish holati. Bu oyoqlar ozgina bukilgan va keng qo'yilmagan holatdir (125-rasm). Bunday ko'rinishida orqa yarim doira shaklida erkin egallagan, qo'llar to'g'ri burchak ostida bukilgan, gavda og'irigi ikki oyoqqa taqsimlangan bo'ladi.



125-rasm

Himoyachi hujumchi vasty paytida tanlash uchun oddiy va ergashma qadamlarini qo'llaydi. O'yinda eng muhimni, baland sakramay harakatlaniш va maydonga oyoqni tez qo'yishdir. Darvozaga uchib borayotgan to'pga himoyachi to'siq qo'yadi.

To'pga to'siq qo'yish bir yoki ikki qo'lda yuqoridan yoki yon tomondan, pastdan amalga oshiriladi. Otish yo'nalishini bilib, himoyachi tezda qo'lini to'g'rilaydi va to'pning yo'lini to'sadi. Muhimi, to'pga qo'l tegishi bilan uni tarang qilishi, to'pga qarama-qarshi zarba berish uchun barcha muskullar taranglashtiriladi. Barmoqlar jips turadi.

125-rasm


Urib chiqarish. Bu usul raqibning to'pni olib yurishini to'xtashda zarur beradi. Himoyachi bir qo'l bilan zarba berib urib chiqarishi, shu paytda yuz qilayotgan yo'nalishga qo'lini olib kelib, to'pni qo'ldan tushirib yuboradi.

Darvozabon o'yini texnikasi. O'yinda darvozaboning turishi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning to'pni qabul qilishga tayyorgartlik vaqtida juda kam bo'ladi, lekin uning to'g'ri turishi to'pni qayarishni ta'minlaydi. Biroz tizzadan bukilgan oyoqlarini 20-40 singa qo'yigan holati darvozaboning asosiy turish holati hisoblanadi. Gavda og'irigi teng ikki oyoqqa taqsimlangan kafti oldinda, qo'llar yonga, biroz bukilgan kaftlar oldinda turadi [24].

Darvozabon joy tanlashda yurish va odatiy yugurish hamda siljish qadamlaridan foydalananadi. Tayyorgarlikning doimiyligi darvozaboning tayanch holatini yo'qotmaslik mas'uliyatini yukaydi. U hamma vaqt darvozaga orqa bilan turishi, ya'ni darvozabon oldi, orqasi va yoni bilan engil harakatlana olishi darkor, sakrashni darvozabon bir yoki ikki oyoqdadepsinib amalga oshiradi. Bu erda tuyyorgartiksiz yon tomoniga sakrash katta ahamiyatga ega. Darvozabon sakrash oldidan yugurishni ko'pincha bir qadamlab bajaradi.

To'pni to'xtatib qolish. Bu usul darvozabonga to'pni to'xtatish, hujumchi o'lgan to'pning uchish yo'nalishini o'zgartirish imkonini beradi. Bu usulni har xil yo'llar bilan bajarish mumkin: bir yoki ikki oyoqda, bir yoki ikki qo'lda, to'pning uchishiga qarab gavda bilan. Agar to'p to'g'ri oyoqqa yoki, undan pastga uchib kelayotgan bo'lsa, darvozabon uni oyoqlari bilan qaytaradi. Darvozabon to'pni bir oyoq bilan tashlanib yoki silitanib ushlab qolishi mumkin (126-rasm). Boshqa holatarda darvozani qo'llar yordamida himoya qiladi.

to'pga chiqish harakatini bajarmasa, raqib uning orqasidan chiqib, uzatilgan to'pni ushlab qolishi mumkin.



126-rasm

To'pni ikki qo'llab ushlash, to'p yuqoridan kelganda amalga oshiriladi. Darvozabon to'pning yo'lini jips kaftlari va tarang tuligan qo'llari bilan to'sadi, kaftlar oldinga qaragan bo'ladı. To'p pastidan kelganda, qo'l holatiga bog'iqliq holda bir qo'l bilan ushlanadi.

8.2. Gandbol mashg'ulotlarida himoya taktikasi

Puxta yo'llangan himoya faqat jamoaning muvaffaqiyatini ta'minlab qolmay, balki hujumda erishilajak yutuqqa o'yinchilarida ishonch hosi qiladi. Himoya faoliyati, o'z o'mida raqibning hujum faoliyatiga ham javob hisoblanadi. Shu tariqa takтика ham muayan darajada tashkilishitrib borildi [27].

Himoyachining o'ziga xos taktik faoliyati. O'z darvozasini muvaffaqiyatlari himoya qilish uchun himoyachi o'yin usullarini egallagan bo'ishi, hujumchiga vasiylik qita olishi darkor. O'yinchchi to'psiz jips bo'Imagan vasiylik paytida, darvoza zonasida shunday joylashishi kerakdi, u to'pning uzatilishini, maydonagi o'yinchilarining faoliyati va o'z vasiyligidagi barcha o'yinchilarini kuzata olsin. Jips vasiylik paytida himoyachining vazifasi vasiylikdagilarning to'pni olishga xalaqtirish kerishdir. Himoyachi o'z vasiyliigidagi yaqin turgan holda joylashadi. Shunda raqib o'z sheriklaridan to'p olmaydi. Hujumchi o'yinchiga vasiylik qilarkan, u raqib to'pni hujumchiga otishiga xalaqtirish kerishi, ketish va sheriklar bilan o'zaro faoliyatini qiyinlashtirishi darkor [12].

To'pni ushlab qolish. Bu usul to'p uzatishlarning uzulishini ta'minlaydi. Maydonda ko'ndalang kelayotgan to'pni ushlab qolish mumkin. Buning uchun u o'zini oldindan, imkon boricha, olib chiqishga tayyorlashi darkor. Agar hujumchi

Himoyada o'yinchilarining guruhi o'zaro faoliyat. Himoyada guruhli o'zaro folyiyat-bu 2, 3 o'yinchining alohida o'yin vaziyatlaridir bir-biriga tez yordam berish maqsadiga o'zaro faoliyatidir.

Muhofaza qilish. Bu guruhi, o'zaro faoliyat turi bo'lib, har bir himoyachi o'z nherigiga kerakli joyda yordam berishga doimo taylor turishidir. Muhofaza qilish deganda zonalni himoya o'yinchilarini tomonga silish va sherik zonasini yopishda hujumchi bilan yakka kurashga kiritishi va chiqishi tushuniladi.

O'tkazish. Bu usul hujumchining uchrashuv yoki chalishshtirma harakati paytida amalga oshiriladi. Hujumchilar bir-biri bilan tenglashgan holatda vasiylikdagilarni almashlash bo'lib o'tadi, ya'ni o'tkazish amalga oshiriladi. Bir himoyachi darvoza zonasasi bo'yab harakat qilayotib, shu holda vasiy himoyachi hujumni yaqin sherkakkacha kuzatib keladi va unga o'yinchini beradi. Shundan no'ng, harakatlanayotgan o'yinchiga boshqasi vasiylik qiladi.

Himoyada jamoati o'zaro faoliyat. Himoyada jamoali o'zaro faoliyat 3 turga bo'linadi: shaxsiy, zonalni va aralash. O'z darvozasi oldida mudofaaning har xil turlarini qo'llay bilish o'yinda jamoaga g'alaba uchun kurashda ustun kelish imkonini beradi.

Shaxsiy himoya paytida har hujumchiga bittadan vasiylik qilinadi. Bunday himoyada hujumchi to'pni uzatish va otishga qynaladi. Hujumchilar muhokamasi ikki usul bilan amalga oshiriladi:

- 1) murabbiy o'yinchilarini kuchiga qarab taqsimlaydi, shunda nisbatan tez hujumchiga chaqqon himoyachi vasiylik qiladi;
- 2) himoyachilar ularga yaqin bo'igan hujumchilarini ajratib oladilar; bu himoya faoliyatiga barcha o'yinchilar teng tayyorgarlik ko'rganlaridagi amalga oshadi. Shaxsiy himoya ikki usul bilan tashkil qilinishi mumkin: himoyachilarini qo'shib va qo'shmasdan. Shaxsiy himoya butun maydon bo'yab yoki faqat o'z maydonining yarimida:

- a) agar raqib jamoatagi o'yinchisi maydonidan haydalganda;
- b) agar raqibning odatiy hujum taktikasini buzishga to'g'ri kelganda;
- c) agar raqib jismoni va taktik jihatdan bo'sh tayyorligiga ega bo'linda;
- d) agar to'pni tez egallash kerak bo'lganda taskil qilinishi mumkin [4, 23].

Zonali himoya. Bu jamoa faoliyatining turi hisoblanadi va har bir himoyachi o'yinchilarning belgilangan vazifasini bajaradi va belgilangan zona maydonida javobgarlikni o'z bo'yning oladi.

Dastlabki turishda barcha himoyachilar, darvozabon maydoni atrofida joylashadiilar (127-rasm) himoyani ikki usul bilan analga oshirish mumkin, ya'ni himochilar darvozabon zonasidan ketib qolmay, faqat to'p tonon siljiganlarida. Buni uzoqqa kuchli otuchhilarga ega bo'linagan raqib jamoasiga qarshi qo'llash yaxshi natijalar beradi. Barcha himoyachilar to'pga to'siq qo'yishni bilishlari kerak. Chiqib himoya qilishda, agar hujumchilardan biri to'pni otish zonasiga yaqin joydan olsa u holda unga qarshi turgan himoyachi peshvaz chiqadi va vasiylilik qiladi, to'siq qo'yib, chiqarib yuborishga, to'pni ushlab qolishga harakat qiladi. Hosil bo'lgan erkin bo'shilq, endi chiziqdagi o'ng va chapda turgan himoyachining sherkilarini muhofaza qiladi. Hujumchini to'pni tashlashga majbur qiladi, peshvoz chiquvchi yana o'zining chiziqdagi boshlang'ich o'rmini egallaydi.



127-rasm

Aralash himoya. Bu jamoали faoliyat turi bo'lib, bir qism o'yinchilar zonali himoya vazifasini, bir qismi esa hujumchilarga shaxsiy vasiylikni analga oshiradilar. Shaxsiy vasiylikni hujumchilar egallaydilar, chunki ular o'yimning o'zga xos ayrim xususiyatlarini egallaganlar. Binobarin, zonani, himoyani unga qarshi qo'llash etarli bo'lmaydi.

Darvozabon takifikasi. Darvozaboning joy tanlashi ko'pincha hujumchi bilan bahsining natijasini hal qiladi. Darvozaboning darvoza bo'ylab sijishi, u tasavvur

qilinadigan ikki ustunini birlashdiradigan, yoy bo'yicha to'g'ri bajarilgan bo'lib chiqadi. Youning darvoza chizig'idan uzoqligi 1m atrofida bo'ladi. Darvozabon o'z o'mini to'p bilan o'yinchining uzoqligiga bog'liq holda yuz chiziqdan markaza tomon to'p bilan yoy bo'yicha sijib tanlaydi. Agar to'p markaziy zonada tursa, darvozabon darvoza markazida joyashadi.

Ba'zan darvozabon otish burchagini kamaytrish uchun hujum qilayotganga daddi chiqishi mumkin. Shunday holatda qarama-qarshi chiziqning muhumiligi shundaki, hujumchi to'ping uchish yo'nalishini endi o'zgartira olmaydi. Aks holda, to'p mabodo tepadan otilsa, darvozabon yakka kurashda yutqazib qo'yishi mumkin. O'z jamosining hujumi vaqtida, darvozabon doimo o'z darvozasing qarhisidagi 9 metli chiziqda o'r'in egallaydi.

8.3. Gandbol mashg'ulotlarida hujum taktikasi

Hujum-jamoanining o'yindagi asosiy vazifasi. Oldindan puxta o'yani, to'g'ri tashkil qilingan va yaxshi tayorlangan faoliyat hujumda g'alabaga erishish imkonini beradi.

Hujumchining o'ziga xos taktik faoliyati. Jamoa faoliyatining natijasi ko'pincha o'yinchilarning mahoratiga bog'liq. Har bir hujumchining o'yini qanchalik qiziqarli bo'lsa, jamoaning g'atalabaga erishishi shunchalik engil bo'ladi.

To'pni olib yurish jamoaga foydali bo'lgandagina qo'llash lozim. Agar oldinda ochiq turgan sherk bo'lsa, to'p olib yurilmagan ma'qul. Olib yurishni boshlashdan ilgari aniq vazifani belgilab olish lozim. Masalan, birga bir turgan himoyachini aldb o'tish va darvozaga hujum qilish; olib yurishni qo'llab, imkon qedur darvozabon zonasiga yaqin kelish, yakuniy otishni bajarish uchun bir qancha himoyachillarni o'ziga jalb qilish, so'ngra to'pni bo'sh turgan sherkka uzatish [11].

To'pni uzatganda uni ochiq uzatishni yoki yashirin uzatishni hisobga olish darkor. *Ochniq uzatish.* Bu uzatishga tayyorligrik paytidagi faoliyat mos keladi. Bunday uzatishni. O'z navbatida, kiruvchi, kuzatuvchi, duch keladiganga, deb qurash mungkin. Kirish paytida sherkilar bir joyda yoki qanday harakat qilib turishlaridan qat'i nazar to'p o'zaro uzatiladi. Kuzatuvchi uzatishlar paytida to'p

sheriklardan birini quvadi. Dush kelgan uzatishlar paytida to'p to'g'ridan-to'g'ni sherik tomon uchib keladi.

Yashirin uzatishlar. Endi to'ping uchish yo'nalishi tayyorgarlik faoliyatiga mos kelmaydi. Yashirin uzatishlarga panja yordamida, orqadan, bosh orqasidan uzatishlar kiradi. Bu uzatishlarni qo'llash, sheriklar bir-birlarini yaxshi tushunishlarini talab qiladi, chunki bunday uzatishlar, odatda, o'zaro yaqin masofada va bevosita raqib bilan yaqin paytida qo'llanadi. Bunday paytida to'pni qabul qilayotgan sherik tomonga harakatlannasligi, to'pni qabul qiluvchiga to'g'ridan to'g'ri qaramay, balki uning faoliyatini sezgi orqali his etib nazorat qilish, kam kuch sarflab, to'pni tez va aniq uzatish zaur bo'ladi, shunday qilinganda yashirin uzatish muvaffaqiyatning zaruriy shartiga aylanadi. Otishni ochiq va yopiq holatdan bajarish mumkin [24].


Ochiq holatdan otish. Shunday hujumchingning otishega tayyorgarlik faoliyatini darvozabonga ko'rinish turadi. Ochiq holatdan uzoq masofaga otish tavsiya qilinmaydi, chunki bunda to'p darvozabonga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Past bo'yili darvozabonga yuqorida to'p yuborishni, "shpagat" qilishni qilmaydiganga qarshi sakrab siрpanishni qo'llash; agar darvozabon fint qo'llasa, otishni to'xtatib turish lozim va hokazo. Shuningdek, darvozaboning zaiif joyini bilib olib, undan foydalansa ham bo'ladi. Ko'pincha, bunday otishlar "cho'ntak"ka (songacha), bosh atrofiga, oyoqlar orasiga mo'jalanadi.

Yashirish holatdan otish. Bunday paytida darvozabon to'pni olishga tayyorlarlik ko'maydi. Hujumchi eng kam vaqt sarflab, darvozabonda himoyachi orasiga yashirinib otishni amalga oshiradi. Asosiy himoyachiga qandaydir qarama-qarshi usul qo'llash imkonini bermaydi. Natijada darvozabon qaysi tomondan to'p uchib kelayotgaunin umuman ko'maydi. Odatda, bu vaqtida darvozabon qulay joyga turib olish bilan ovora bo'tib to'p ushlagan o'yinchini ko'ra olmaydi va darvozaga kelayotgan to'pni qaytarishga tayyor ham bo'lmaydi

Ketish. Bunda hujumchi himoyachining vasiyligidan ozod bo'ladi va o'yinni davom ettirish uchun qulay holatni egallaydi. Ketish, yugurish, to'xtashlar, burlitishlar yordamida to'p bilan va to psiz amalga oshiniladi.

Fintlar. Himoyachining mo'jal olishini buzishga qaratilgan, kutilmaganda boshlangan va bo'lingan o'yin usullari birikmasidan iborat hujumchi faoliyatidir. Fintlarni to'p bilan va to'psiz amalga oshirish mumkin. Fint himoyachining vasiyligidan ozod bo'lish uchun hujumchi tomondan qo'llanadi. Fintlar, asosan, harakat yo'nalishini o'zgartirisha o'z aksini topadi. Bunday paytida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish usullari birikmasidan foydalaniadi. Hujumchi kutilmaganda to'xtarkan u bilan yonna-yon harakatlantayotgan himoyachi o'zini to'xtatolmay o'tib ketadi. Bu vaqtda hujumchi o'zi uchun qulay yo'nalishga otilib chiqib, to'pni olib yurishdan foydalanshi yoki darvozaga otishni amalga oshirishi mumkin. Agar himoyachi ro'parada turgan yoki harakat qilayotgan bo'lsa, u holda hujumchi chalg'ituuchi harakat qilib, iloniizi usulida yugurishdan foydalansadi. Fintlarni muvaffaqiyatli qo'llashda hayajonlanish hissi sezilmasligi, bosh, ko'z, gavda, qo'llar harakati odatdagidek ko'rinishda bo'lishi lozim.


O'yinchilarining hujumdag'i guruhli o'zaro faoliyati. Butun jaoaning o'zaro hujumchilarning 2 yoki 3 o'yinchisi qatnashishi mumkin, bu hujumchilarning guruhli o'zaro faoliyatining asosi hisoblanadi. Guruhli o'zaro faoliyat turi sheriklar bir-biriga nisbatan qanday silishlariiga, yonna-yon, chalishirma yurish yoki to'siq qo'yishlariga qarab aniqlanadi. 128-rasmida gandbolaktik chizmasining shartli belgilari berilgan.



128-rasm


Yorma-yon harakat. Bunday o'zaro faoliyat davomida hujumchilarning yo'l harakatlari kesishmaydi. Vazifaga bog'liq holda bu o'zaro faoliyatini ikkiga ajatish mumkin. Bu hujumchi o'zaro harakat qilib, himoyachilarni belgilangan masofada ushlab turib-tortmasdan yoki chiqishga majburlab, himoyachilarni o'zaro faoliyatga tortib, harakat qilishidan iborat [12].

O'zaro faoliyat paytida himoyachilarni tortmasdan, har bir qatnashchi sherikka to'pni uzatib, vasiylidkan ozod bo'ladi va yana to'pni oladi. Muvaffaqiyatning bosh garovi himoyachidan to'psiz ketishdir (129-rasm).



129-rasm

O'zaro faoliyat paytida 2 raqamli hujumchi to'p bilan himoyachilarni tortib o'z vasiyini aldash o'tib, qo'shi himoyachini o'ziga qarashga majburlaydi va 3 raqamli sherikni vasiylidkan ozod qiladi. O'zaro faoliyat vaqtida ikki yoki undan ko'proq sheriklar qatnashishi mumkin. Ular o'zaro faoliyatga qat'iy ketma-ketlikda kirishadilar (130-rasm).



130-rasm

Chalishirma o'zaro faoliyat. Bunda yo'l harakati yoki sheriklarning harakat yo'nalishlari hujum payida kesishadi. Chalishirma o'zaro faoliyat ichki va tashqiga bo'linadi. Ichki chalishirma o'zaro faoliyat paytida 9 raqamli hujumchi to'p bilan o'yin davomida himoyachini 6 metli chiziqdan chiqishga majbur qiladi

va darvozabon zonasasi yonida 4 raqamli shergi uchun bo'sh o'rinn yaratib beradi. Shunda shergi to'pni qabul qilish uchun qulay holatga chiqib oladi. Tashqi chalishirma o'zaro faoliyat paytida o'yinchisi tomon harakat boshlanadi. Himoyachilarni bir-biriga yaqinlashтириб, siljib, uning yo'lini kesib o'tadi hamda u sherikning hal qiuvcchi otishi uchun yo'li ochib beradi.

To'siq qo'yish (zaslon). Guruhli faoliyat turlaridan bo'lib, hujumchilardan biri shergi vasiyining yo'lini to'sadi. To'siq qo'yishdan maqsad, sherikka to'pni darvozaga otish imkoniyatini yaratishdir. To'siq qo'yishda muvaffaqiyati o'zaro faoliyat uchun quyidagilar: yashirin to'siq qo'yish; 10-20 sm nari ketgan holda himoyachi to'siqqa kelib urilishiga erishishdir. To'siq qo'yib himoyachiga orqasi bilan turganda, qoidani buzish hollari kam yuz beradi va ketishni amalga oshirish engil ko'chadi.

Hujumda jamoali o'zaro faoliyat. Jamoali o'zaro faoliyatini tashkil qilganda

tez va asta-sekin hujum uyushtiriladi. Tez hujum to'satdan, kutilmagan holatni yuraga keltirish bo'ladi, bunda hujumchilar raqib jamoasiga qarshi faoliyat ko'rsatadilar, bu vaqt o'zga jamoa mudofaani tashkil qilishga ulgurmaydi. Sekin-asta hujumda esa belgilangan reja asosida himoya qilish va hujumda o'yinchilarni joy=joyiga qo'yib, uyushgan raqib bilan kurash olib boradi.

Tez hujum. Ikki oyoqlama ajrab chiqib va yorib o'tib amalga oshiriladi. Ajrab chiqishda: a) bir yoki bir necha o'yinchilar raqib darvozasi tomon yuuguradilar. Darvozabon yoki shergi to'pni uzodidan uzatib, o'yinchilardan biriga darvozani shug'ol qilish imkoniyatini yaratadi; b) himoyachi to'pni tutib olib yurish usulini qo'llaydi va darvozani nishonga oladi. Yorib o'tish paytida bir qancha vasiylidagi hujumchilar raqib darvozasi tomon silijyildilar, ularning orasidan sheriklar harakat qiladilar, vasiylidkan ozod bo'lganlar, to'pni egallaydilar. Yorib o'tib hujum qilish bu, asosan, raqibga himoyani tashkil qilishga yo'i qo'ymaslikdir. Tez hujumni amalga oshirishdan maqsad: o'yin vaziyatida mo'jal topa ola bilish; ketish paytini to'g'ri belgilash, raqibdan o'zib ketish; yuqori tezlikda ko'chib, o'yin texnikasini egallash; o'yinchini oldinga chiqarish; himoya tizimini qo'llash; hujumni amalga

oshirish uchun jamoadaagi eng tezkor o'yinchilarni oldindan mo'jallash. Shu tariqa tez hujumni tashkil qilib, darvozani egallash.

8.4. **Gandbolamalaty mashg'ulotlari da mustaqil ta'lin**

Gandbolshug'ullanuvchitardan yaxshi jismoniy tayyorgarlikni talab etadi. Shu bois, mahoratlari o'yinchili bo'lish uchun zarur jismoniy sifatlarini-tezkorlik, egiluvchanglik, chaqgonlikni egallash lozim. Bunday sportchilardan tarkib topgan o'yinchilar ega murakkab o'yin usullarni egallashda qynalmaydiar. Gandbolbo'yicha yaxshi o'yinchili bo'lismi xohlovchi to'pni darvozaga kuchli otishningina emas, balki uzatish paytida sherikning qo'lliga to'pni aniq va yunshoq uzatishni ham bilishi zarur. Buning uchun esa mashqlarni mustaqil ravishda har kuni bajarish darkor. Shundagina gandbolo'yinchisiga xos sifatlar tarbiyalanishi mumkin. Masalan, panjalar kuchini oshirishda qo'l espanderi yoki temnis koptogini ezishdan, rezinali amortizatorni cho'zishdan foydalananish joyiz. Uzoqqa va nishoniga har xil og'irlikdagi buyumlar (to'plar)ni uloqrish hamda kuch bilan bog'liq harakatli o'yinlarni o'yinash darkor. Oyoq kuchi va harakat muvoqiqligini uyg'unlashiurish uchun navbat bilan har ikki oyqdona depsinib, buyumlarga sakrab etishdan foydalaniadi. Har xil buyumlarda xuqqabozlik (janglirovaniye) qilish chaqgonlikni tarbiyatlashga yordam beradi, bu esa qo'l to'p o'yinchisi uchun to'pni egallashda muhimdir. Demak, darvozabon o'yini mahoratini bilishi xohlagan sportchi, mustaqil ravishda himoya qistimalarini boldiriga, tizzaga, qorniga va tirsaklarga kiyib mashq qilsa bo'jadi [11, 22, 23].

Darvozabonlikni endi boshlagan o'yinchili to'pni qo'iqopda ushlashi mumkin. Darvozabon doimiy ravishda maxsus mashqlarni bajara borib, oyoq egiluvchanligini rivojlantirishi darkor.

Gandbolo'yini insondagi barcha asosiy harakatlarni: yugurish, sakrash, uloqrishni o'ziga qamrab olgan. Demak, gandbolo'yinab, barcha jismoniy sifatlarini takomillashtirasiz, bu siga "Alponish" va "Barchinoy" maxsus test me'yorlarini muvaffaqiyatlari bajarishga yordam beradi.

Har bir mashg'ulot boshanishidan oldin, tegishli, chigil yozish mashqlarni bajarish zarur, ular o'yin texnikasi va taktikasi asoslarini o'zlashtirishga yordam beradi. Misol uchun to'pni avval bir-biriga sekin uzautiladi yoki uni devorga otiladi. So'ngra otish jadallashiriladi. Mashqlar ketma-ketlikda, izchil bajariladi. Chunonchi, to'pni bir-biriga uzaшиб, zal bo'ylab harakatlaniladi yoki to'siq oldin to'p ustidan, keyin turli buyumlar ostidan o'tiladi.

Asli gandbolo'yini maydonining bo'yni 40m, eni 20m bo'ladi. Ba'zan o'yinni kichik o'chamnidagi maydonda ham o'yinasa bo'ladi. Masalan, 24x12mli zalda darvozabon maydon chizig'ini darvozabondan 5m narida, erk'in otish chizig'ini esa 7-8mdan o'tkazish mumkin. Agar guruhga kuchli to'p otuvchi bo'lsa, ularga 7-8m dan yaqin bo'limgan masofadan otishga ruxsat beriladi.

20x10mli zalda darvozabon zonasini maydonin 3-4mga qisqartirish mumkin, erkin tashlash chizig'ini esa darvozabon zonasidan 1-2m narida o'tkazsa bo'ladi. Bunday maydonda darvozabonsiz o'yinash, o'yinni maydon markazidan emas, balki darvozabon boshlash, maydon bo'ylab shaxsiy himoyani qo'llab, jamaoa turkibini 4-5-6 kirishgacha kamaytirib o'yinash mumkin.

Qo'l to'pidagi dastlabki qadamlar qizlarga ham, yigitlarga ham qyinchilik tug'dirmaydi, chunki o'yin usullari kundalik hayotimizda doimiy uchrab turadigan tabiiy harakatlaridir. Lekin mahoratlari bo'lishi uchun esa jiddiy mehnat qilish va hodali bo'lish talab qilinadi. Gandbolo'yininining ustalari tezkorliklari, o'yin usullarini chaqqon bajarishlari bilan ajralib turadilar. Kim o'yinni hadiqadan nevsasi, bunday mukammalikka erishishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Gandbolo'yinida qanday usullarni bilasiz?
2. Raqib darvozaga to'pni olib kelayapdi. To'pni olib yurishda, uni qanday qilib urib chiqarish mumkin? O'z xiylangizni yashirib uni qaysi yo'i bilan qo'llaysiz?
3. Kuchli va aniq o'tishga mustaqil o'rganish mumkimi? Uy sharoitiida qo'l to'piga doir mashqlar o'tkazish mumkimi? Qanday qilib?

IX BOB. GIMNASTIKANING TARIXI VA UMUMIY TAVSIFI

9.1. Gimnastika mashg'ulotlarining tasnifi

Zamonaviy gimnastika-bu maxsus tanlangan jismoniy mashqlar va metodik usullar tizimidan iborat bo'lib, insonning salomatligini mustaxkamlashda, uning bir tomonlama jismoniy rivojlanishida hamda jismoniy sifatlar-kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va chadqonlikni takomillashtirishda qo'llaniladi.

Gimnastika mashg'ulotlari kishilarning umumiy jismoniy tayyorlarligi uchun zamin yaratadi, ular barchaga yoshi, jinsi va tayyorgarligiga bog'iq bo'lmagan holda mos kelaveradi. Gimnastika mashg'ulotlari muskularning bir tekis taraqiqiy etishiga imkon beradi, chiroyli qaddi-qomatning shakillanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Rang-barang bol'gan gimnastika mashqlari belgilangan muskullar guruhiga, ularning tanlab ta'sir ko'rsatish tabiatiga, jismoniy yuktlanmalarni aniq me'yordash mayjud ekanligiga ko'ra uni jismoniy tarbiyaning o'z o'mniga ega bo'lgan vostasiga aylantiradi. Shuning uchun ham u maktabgacha tarbiya muassasalarida va o'quv muassasalarida, davolash-profilaktika ishlarida va ishlab chiqarishda, armyya va sportda ham o'zining keng o'rmini topgan. Birorta sport turi yo'qki, unda gimnastika mashqlari ishtirok etmagan bo'isin. Gimnastika mashqlaridan engil atletikachi, kurashchi, basketbolchi va shu kabi sport turi vakillarini tayorlash hamda maxsus vazifalarni hal qilishda keng foydalaniлади.

Gimnastika mashqlari olyi ta'lim muassasalarida, talabalarning o'quv mashg'ulotlarida ham, sport seksiyalaridagi trenirovka mashg'ulotlarida ham o'z o'mini topgan. Gimnastika mashqlari ertalabki gigiynek batantarbayada, mustaqil uy mashqlarida, ishlab chiqarish gymnastikasi va badantarbiya daqiqalarida ham muhim hisoblanadi[13; 25 s].

Gimnastika, shuningdek, olyi ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy-amaliy jismoniy tayyorlashda ham qo'llaniladi. Talabalar gimnastika mashg'ulotlari davomida yurish, yugurish, tirmashib chiqish, emaklab o'tish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, yukni ko'tarib yurish va olib o'tish kabi ko'nikma va hayotiy

muhim malakalarni egallaydiar va takomillashtiradilar. Ullar barcha mehnat faoliyat davomida kerak bo'jadi.

Tajriba "Alponish" va "Barchinoy" maxsus test me'yor va tafablarini bajarganda, o'quv mashg'ulotlariga jiddiy munosabatda bo'lganda, uyda gimnastika mashq mashg'ulotlarining muntazam bajargandagina ijobjy natija berishini ko'rsatmoqda.

Olyi ta'lim muassasasining barcha talabalari, ayniqsa, bitiruvchilari, o'z o'riqlari bilan ertalabki gigienik yoki ishlab chiqarish gimnastikasi mashg'ulotining tashkil etish hamda o'tkazishni bilishi kerak. Ular bu ko'nikma va tashkilotchilik malkalarini o'quv mashg'ulotlarida o'zlashtirib oladilar.

9.2. Gimnastik xafsizlik qoidalari

Gimnastika bilan shug'llanayolganda kuzatiladigan xafsizlik faktorlari hisoblanadi.

A) Xafsizlik qoidalariga doimo rioya etishga ishonch komil qiling.

1) Jihozlarning matlarga to'g'ri joylashtirilganiga ishonch komil qiling.
2) Jihozlarni harakatlanshda ular orasida etarli joy bo'lishiga ishonch komil qiling.

3) Jihozlaring balandligi, kengligini gimnastga mostligini tekshiring.

B) Kuzatuv.

1) Gimnastika o'z mashqlarini faqatgina etarli tajribaga ega kuzatuvgchi qo'ostiда amalga oshirishi kerak.

2) Qo'shimcha yordamchi, ko'tarib turuvchi jihozlarni ishlatilganda ularning mustahkamligiga e'tibor bering.

S) Shaxsiy g'amxo'rlik.

- 1) Yuvelir mahsulotlarini taqmang.
- 2) Sport kiyimi bor sumkangizni yo'qotmang.
- 3) Gimnastik mashqlardan oldin tanangizni qizadiring.
- 4) Gimnastik tayyor bo'lmagan mashqlarni bajarishiga ruxsat bermang.

5) Tana toliliqanda gimnastikani mahoratini ko'rsatishiga yo'l qo'y mang.

6) Gimnastikadan talab qilinayotgan mashqning uni qo'sidan kelishiqa ishonch hosil qiling.

7) Xafvsiz qo'nish jarohatlanishi xafvini kamaytiradi.

Gimnastikkada umumiy intizom va xafvsizlik-gimnastikadagi shikastlanishlar asosan bo'yusummaslik va o'zbilarmonlik oridan kelib chiqadi. Shuning uchun mashg'ulot paytida intizomni yuqori darajada o'rnatish juda muhimdir. Intizoma qattiy rioya qo'yilmoq kerak.

Eshshak mindi, har-xil o'yinlar, zalda yugurib yurishga ruxsat bermaslik kerak. Tarbiyani yaxshi standarti, o'z-o'zini boshqarish gimnastikani asosiy talabidir.

9.3. Jarohatlanishi oldini olish

Har qanday jismoniy harakat paytida potensial shikastlanish havfi bo'latdi. Jismoniy tarbiyani hamma aspektlarini o'qtish mohaynida bu erda yana bazi umumiy proseduralar borki, undan ischchilar talabalarning jarohat olish ehtimolini kamaytirishda foydalanshlari kerak.

1. Doimo atrof havfsiz va yumshoq bo'llishiga, shu holatda saqlanishiga etibor bering.

2. Gimnasti ehtiyyotkorlik bilan tayyorlab boring va bu davomida quvvati va kuchimi oshirib boring.

3. Gimnastika elementlarini o'rgating.

4. Gimnastika mazmunini boshlashdan oldin sinfi qizitib oling.

5. Gimnastik harakatlarni o'rgatishdan oldin xavfsiz, zamonaviy elementlarni ishlating.

6. Individual gimnastikachi qobiliyatiga mos harakat tanlang.

7. Ogorh bo'ling charchash gimnastikachini aniqligini kamaytirib, jarohat xavfini kuchaytiradi.

Birinchi yordam va tez tibbiy yordam jarayoni - Gimnastikachiga o'rgatilganidan qat'iy nazar tez tibbiy yordam ko'rsatish jarayonini hamma istirokhilar tomonidan tushunishlari kerak[9].

Quyidagilardan doimo tayyor turishi lozim:

A) Qo'llanma bilan tashqi telefon liniyasiga imkoniyat yaratish.

B) Yaqin atrofdagi idoralar va ularga tegishli raqamlar.

S) To'liq jihozlangan birinchi yordam to'plami.

Birinchi yordam uchun tafsiyalar vakolati birinchi yordam tomonidan olinishi kerak.

Baxsiz hodisalar vaqtida tegishli o'chovlar sizing maktabingiz yoki mahalliy ta'lim muassasasi tomonidan o'rnatilishi muhimdir.

Eng ko'p uchraydigan gimnastik jarohatlar. Po'rsiidoqlar ya'ni oyoqqa yaxshi tushmaydigan oyoq kiyimi va qo'hi ishqalanishi sabab bo'ladı. Shiflinski esa mat va gimnastik jihozlar bilan ishqalanishi bilan vujudga keladi. Muskullarning shkastlanishi esa oz miqdorda tanani qizdirish sabab bo'ladı. Muskullarning uzilishiga ortiqcha mashqlar bajarish sabab bo'ladı. Tovon va bilaklarning pay cho'zilishi. Pay cho'zilishi odatda bijak va tizza bo'g'imlari birlashgan joyda bo'ladı, bunga esa mashqlarni noto g'ri bajarish sabab bo'ladı. Ko'karishlarga esa yiqilish va ishqalanishlar sabab bo'ladı.

Yangi shug'ullanuvchilar uchun eng yaxshi maslahat zallarda shkastlanishi oldini olish yuzasidan ko'nikmalarga ega bo'lish.

Zalda uchraydigan jiddiy jarohatlar suyak sinishi, umrtqa jarohatida esa malakali tibbiy yordam darkor.

9.4. Gimnastikani hozirgi kundagi muammolari

Sportdagi narkotiklar. Gimnastika sporti narkotik moddalarga boy bo'lgan tekshiruvlarda aniq qatnashadi. Ayblovlar erkak gimnastiklarda rivojlangan katta kuchga nisbatan tayyorlanadi. Biroq bu holat shug'ullanish, gimnastik chiqishlar, g'iyoxvand moddalarga bog'lanmagan bo'ladı. Sportchining ustunligini oshiruvchi

va chiqishlarga halal beruvchi muddalar, xalqaro miyosida taqiqlangan. Quyidagi narkotik muddalar gymnastlarni chiqishiga ta'sir ko'rsatadi:

Stimlyatorlar. Stimlyatorlar ziraklikni oshiradi va charchoqni kamayitiradi.

Biroq ular to'g'ri qaror qabul qilishni yo'qotadi. Bu esa, gymnastini chiqishidagi kritik aspektdir.

Betabloker. Bular asosan qoming bosimini boshqarishda ishlataladi. Biroq ular javob berishga ta'sir etadi. Bu esa, yana sportchi harakatlariiga xavfdir[3].

Diyaretiklar. Og'irlikni tezda kamayitirishda diyaretiklardan foydalaniladi.

Biroq ular kuch va quvvatlarni kamayishiga sabab bo'ladi. Bu ham gymnast uchun foyda bo'lmaydi.

Qon dopingi. Transport vazifasini bajaruvchi qizil qon xujayralari chidamlilik mashqlarida o'sishini ta'minlaydi. Bu esa, ko'p kistorodni talao qilib, etarli energiyani ajratadi va chidamlilikda ustunlik beradi. Anaerobik faoliyati uchun gimnastikada qon dopingi biror foyda berolmasligi mumkin.

Yuqoridaqgi fikrlardan ko'rinish turibdiki, gimnastikada norkoti muddalar rol o'yynamaydi. Shuning uchun gimnastikaga toza sport deb qaralmoqda.

Ayollar *gimmastikada* – Ayollar gymnastlar tomonidan o'tkaziladigan kuchli shug'ullanishlar gymnastikachini jismoniy rivojanishini kamayitiradi. Biroq, kuchli shug'ullanish to'xtatilsa, bu ayloga uzoq vaqt ta'sirsiz rivojanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, kuchli shug'ullanish xayz davrimi, hatto o'spirinlik davrini oxingacha kechiktirib yuborishi mumkin, biroq shu bilan birga shug'ullanishni goldirilish bilanoq bu jarayon yana boshlanadi[9; 41 s.].

Ommaviy gimnastika – Dunyo manifestatsiasi omnaviy gimnastika har 4 yilda Dunyo gymnoestradasi nomi ostida nishonlanadi.

Gymnoestrada gymnastlar uchun musobaqa festivali bo'llib, Jahon boshqaruvi organi tomonidan raqs va harakat kechasi bo'lib uyushitiriladi. Dunyoning barcha joyidan yig'ilgan gymnastlar o'zlarining madaniyatiga bog'iqliq chiqishlarini amalga oshirishadi va ulardan bakramand bo'lishadi.

Gimnoestrada miliy festivaldan, katta, xalqaro festivalga aylandi.

X BOB. GIMNASTIKA DARSALARINI TASHKIL QILISH VA

O'TKAZISH

10.1. Gimnastika mashqlarining atamalari

Gimnastika mashqlarining atamalari hayotiy ehtiyoj tufayli paydo bo'idi, ya'ni insonning har xil holat va harakatini qisqa qilib aytish lozim bo'lib qoldi. Bu esa gimnastika, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanuvchilarni o'qituvchi, murabbiy, sport hakamlari bilan muomalada bo'lishini engillashtiradi. Asosiy gimnastika atamalari va ularning hosil bo'lish qoidalari sport turida keng qo'llaniladi.

Gimnastika atamalari 1938-yilda qabul qilingan bo'lib, shundan so'ng u tarixiy rivojlanirildi, antqashitirildi, to'ldirildi va ayrımlari qisman almashtirildi, yangilari qo'shildi.

